



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz




@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

MUTAFAKKIR. BASHORAT VA VASIYAT



(4-5-sahifalarda o'qiling)



TALQIN

JCH-2026: YER "TO'P" INING TERS TOMONIDA



NOSTANDART STANDARTLAR

1930-yilda bo'lib o'tgan birinchi Jahon chempionatida 13 ta jamoa ishtirok etgan.

Bu yil 48 ta terma jamoa qatnashadigan turnir barcha rekordlarni yangilamoqda. Uchta mamlakatda jami 104 ta o'yin o'tkaziladi. Bu ham avval ko'rilmagan ko'rsatkich.

1998-yil turnirida 32 ta jamoa ishtirok etdi. Mazkur format 2022-yilgacha saqlanib qoldi va optimal ko'rinish tusini oldi. Ammo keyinchalik FIFA ilgari kamdan kam hollarda yoki hech qachon Jahon chempionatiga yo'llanma olmagan mamlakatlarda futbolga qiziqishni oshirish uchun turnirni ellik foizga kengaytirishga qaror qildi.

Ammo muxlislarni g'azablantiradigan yana bir rekord borligini aytmamak bo'lmas. Bu ham bo'lsa chiptalarning juda qimmat narxi. AQSH mezbonligidagi turnirda chiptalarni qayta sotish borasida qat'iy cheklolvar yo'qligi tufayli chay-

Oxirgi to'rt yillikning eng katta sport bayrami bo'lgan futbol bo'yicha Jahon chempionatining ilk hushtagi kecha chalindi. 19-iyul kuni Ist-Raterford stadionida o'tadigan finalga qadar bizni 104 ta o'yin va tarixiy voqealar kutib turibdi.

Futbol tarixida ilk bor 48 ta jamoa ishtirok etayotgan ushbu tarixiy turnirda kim g'olib bo'lishi mumkin?

Eng yuqori imkoniyatga ega favoritlar kimlar?

Tarixda qaysi davlatlar zafar quchgan? Xullas, yashil maydondagi buyuk janglar boshlandi. Bizni unutilmas emotsiyalar, tarixiy gollar va yangi qahramonlar kutmoqda.

Ushbu maqolada jahon futbolining eng qiziqarli savollariga javob izlaymiz.

qovchilar narxlarini sun'iy ravishda oshirib yuborishmoqda. Natijada milliardlar o'yini bo'lgan futbol faqat elitaning ko'ngilochar o'yiniga aylanib qolishi yuzasidan xavotirlar paydo bo'lyapti.

CHEMPIONLAR

96 yildan buyon o'tkazib kelina-yotgan Jahon chempionatlari tarixida faqatgina 8 ta terma jamoa bosh sovrin – Oltin kubokni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lgan.

1. **Braziliya** (5 karra chempion): 1958, 1962, 1970, 1994, 2002-yillar.

Futbol qiroli Pele vatani – mundiallar tarixidagi eng muvaffaqiyatli jamoa.

2. **Germaniya** (4 karra): 1954, 1974, 1990, 2014-yillar. "Nemis mashinasi" o'zining temir intizomi va barqarorligi bilan ajralib turadi.

3. **Italiya** (4 karra): 1934, 1938, 1982, 2006-yillar. Himoyaviy taktika ustozlari.

(Davomi 3-sahifada.)



ILM YO'LI

TIBBIY MA'RIFAT NIMA?

O'zFA Immunologiya va inson genomikasi instituti direktori, akademik
Tamaraxon ARIPOVA bilan suhbat



– Tamaraxon O'ktamovna, tibbiyot fanlari doktori diplomini qo'lga olgach, Immunologiya va inson genomikasi institutida ish boshlagan ekansiz. Shunga ham 34 yil to'libdi. Muassasaning Mustaqillik davridagi, xususan, keyingi o'n yillikdagi faoliyati ko'z o'ngingizda kechgan. Shunday emasmi?

– Ha, aynan. Ko'z ochib ko'rganim – ilmiy va amaliy faoliyatim kechgan, yangi yutuqlarimga zamin hozirlagan, keng quloq yozib jahon maydoniga kirib borishim uchun tayanch bo'lgan dargoh shu.

1985-yilda tashkil etilgan institutimiz o'tgan yillar davomida mintaqamizda immunologiya, tibbiy genetika, allergologiya, immunopatologiya va genomika sohalaridagi muhim ilmiy markazga aylandi.

Bugungi kunda jamoamiz faqat fundamental tadqiqotlar bilan cheklanib qolgani yo'q. Asosiy maqsadimiz – ilm-fan natijalarini amaliyotga, shifokorga va eng muhimi, bemorga yetkazishdir. Biz kasalliklarning immunologik va genetik mexanizmlarini o'rganamiz, erta tashxis qo'yish, profilaktika va davolashning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqamiz, tibbiyotning kelajagini belgilaydigan yangi texnologiyalarni joriy etishga harakat qilamiz.

(Davomi 2-sahifada.)

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev onkologik va gematologik tibbiy yordam va palliativ xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov vafoti munosabati bilan hamdardlik bildirdi.

✓ BMT Turizm tashkilotining tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2026-yilning yanvar–mart oylarida xorijiy sayyohlarni jalb qilish bo'yicha dunyoda eng yuqori o'sish qayd etilgan TOP-5 davlat qatoriga kirdi.

✓ O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga 17-martdan 1-iyungacha yarim million nafar mahalliy va xorijiy ziyoratchilar kelgan.



MANSURA

Ibrohim G'afurov,
O'zbekiston Qahramoni

Vatandoshlarim

Mana shular – mening vatandoshlarim boshqasini qaydan olaman uy solishni sevishar to'y qilishsa quvishar aza kelsa turishar vazminlikni suyishar – Mana shular – mening vatandoshlarim boshqasini qaydan olaman oftoblikka asta chiqishar jahon bilan sekin so'rashar ehtiyoti unga yarashar – Mana shular – mening vatandoshlarim boshqasini qaydan olaman...

jiq bo'lib ketdim fikr chopqinlarida tun-kun olishar fikr azamatlari aql alpirlari uzar asriy zanjirlarni azamat janglardir – fikr janglari jiq ho'l bo'laman chopqinlarida jang qilmagan o'zini tanimas o'zini tanigan albatta taniydi Xudoni Xudoni tanigan yo'lni yo'qotmas. Mana shular – mening vatandoshlarim – boshqasini nima qilaman... qaydan olaman...

1990-yil



MUJDA

XAYRLI MANBA

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida ko'p jildli Islom ensiklopediyasini yaratish barobarida tayyorlangan bir jildli muxtasar "Islom ensiklopediyasi" nashrdan chiqdi.

Ma'lumki, har qanday ensiklopediya o'z davri va jamiyatining in'ikosi hisoblanib, tegishli mamlakat va hududlarda ustuvor bo'lgan qadriyat va an'analarni o'zida aks ettiradi. "Islom ensiklopediyasi" ham bu qoidadan mustasno emas, albatta. Qolaversa, ushbu ensiklopediya uzluksiz jarayon, ya'ni, davomli loyihadir.



(Davomi 2-sahifada.)



TAQDIMOT

JADIDONA TUHFA

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan "Jadid" gazetasi tahririyati tomonidan uchta kitob chop etildi. "Tilda, fikrda, ishda birlik!" (to'plam), "Millat fidoyilari" (Rustambek Shamsutdinov) va "Botmasin chiqqan quyosh" (Bahodir Karim) deb nomlangan kitoblar "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan. Shu kunlarda mazkur kitoblarning taqdimotlari o'tkazilmoqda.

OLIY MAJLISDAGI NAFIS MAJLISLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "Jadidlar merosi: tarix, tafakkur va taraqqiyot" mavzusida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir taqdimotlar silsilasini boshlab berdi. Bu o'ziga xos ramziy ma'noga ega bo'lib, barcha harakatlarimiz xalq uchun, inson qadri uchun degan g'oyaning amaliy ifodasidir.

Tadbirni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari Mavludaxon Xo'jayeva ochdi va olib bordi. Unda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Olimjon Davlatov, filologiya fanlari doktori, professor, "Botmasin chiqqan quyosh" kitobi muallifi Bahodir Karim, gazetaning faol mualliflaridan bo'lgan jurnalist Ulug'bek Ibodinov so'z olib, taqdimot qilingan kitoblar haqida fikr-mulohazalarini bildirar ekan, ushbu asarlar tarixiy merosimizni yanada chuqur anglashga xizmat qilishini qayd etdilar.

Xalq vakillari ushbu nashrlarni kutubxonadan olib tanishib chiqqanlarini qayd etdi va taassurotlari, kelgusi faoliyat uchun takliflarini bildirdi.

– Bugungi kunda Qonunchilik palatasi buyuk tariximiz, boy madaniyatimiz va ma'rifatimizga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatish, ularni asrab-avaylash hamda yanada rivojlantirish yo'lida izchil faoliyat olib bormoqda, – dedi Oliy Majlis Qonunchilik



palatasi deputati Rahmatillo Shukurov. – Sohadagi qonunchilik asoslari ham takomillashmoqda. Quyi palatada kitob taqdimotlari, ziyolilar bilan uchrashuvlar, tarixiy merosimizga bag'ishlangan tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Ayniqsa, yangi kitoblar taqdimoti asarlarning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini yanada teran anglash, unda ilgari surilgan ezgu g'oyalar va tarixiy haqiqatlarni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ma'rifiy maydon bo'lib xizmat qildi. Masalan, "Botmasin chiqqan quyosh" kitobidan jadidlik harakatining namoyandalari, ularning ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy faoliyati, milliy uyg'onish jarayonlarida tutgan o'rni hamda ma'naviy merosiga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan. Bu yosh kitobxonlar qatorida jadidshunoslik yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun ham muhim manba bo'lishiga ishonamiz.

Tadbir yakunida mehmonlar zamonaviy parlament kutubxonasi, Qonunchilik palatasining muzeyi bilan ham yaqindan tanishdi.

(Davomi 2-sahifada.)



TIBBIY MA'RIFAT NIMA?



Boshlanishi 1-sahifada.

Institutimiz bazasida akademik Nikolay Bochkov nomidagi Tibbiy-genetik ilmiy markazning Toshkent filiali faoliyat yuritayotgani alohida ahamiyatga ega. Chunki tibbiy genetika irsiy va kam uchraydigan kasalliklarni erta aniqlash, prenatal maslahat, oilaviy xavf omillarini baholash va bemorga individual yondashishda muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda institut xalqaro ilmiy loyihalarda ham faol ishtirok etmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo aholisi genomini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilyapti. Shu vaqtgacha mintaqamiz aholisining genetik xususiyatlari yetarli darajada chuqur o'rganilmagan edi. Aniq va individual tashxisni rivojlantirish uchun biz o'zimizga xos ilmiy bazaga, o'z genetik ma'lumotlarimizga, kasalliklarga irsiy moyillikni mintaqaviy jihatdan tushunishga ega bo'lishimiz kerak.

Muhim yo'nalishlaridan yana biri preeklampsianing immunologik va genetik mexanizmlarini o'rganishdir. Preeklampsiya – homiladorlikning ikkinchi yarmida yuzaga keladigan, qon bosimi oshishi va peshobda oqsil paydo bo'lishi bilan xarakterlanuvchi, ona va bola hayoti uchun xavfli bo'lgan tibbiy patologik holat. Bu nafaqat ilmiy, balki jiddiy ijtimoiy ahamiyatga ega masala. Gap ona-bola hayoti ustida ketyapti, axir. Agar xavf guruhlarini, asoratlarning immunologik va genetik belgilarini erta aniqlay olsak, og'ir oqibatlarining oldini olish imkoniyati ancha kengayadi.

Alohida ta'kidlashni istardimki, yangi strategik yo'nalish – hujayraviy terapiya ham rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va topshiriqlari asosida hujayraviy terapiya bo'limi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi – mamlakatimizda hujayraviy texnologiyalar bo'yicha ilmiy va texnologik asosni shakllantirish, mutaxassislar tayyorlash, ushbu yo'nalishda xavfsiz, standartlashtirilgan va ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Institut o'z filiallari va hududiy bo'linmalari orqali faoliyatini kengaytirib bormoqda. Bu bizga tadqiqotlarni faqat markazda emas, balki hududlar ehtiyoji bilan bog'liq holda olib borish, ilmiy natijalarni amaliyotga yaqinlashtirish imkonini beradi.

– **Mana shunday yangi va murakkab ishlarni amalga oshirayotgan jamoa tarkibi qanday tuzilgan?**

– Institutda 20 nafar fan doktori, 8 nafar fan nomzodi faoliyat yuritmoqda. Xodimlarning o'rtacha yoshi – 48 yosh. Bu yaxshi ko'rsatkich, chunki bizda katta tajribaga ega ustozlar bilan

birga, zamonaviy texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan, qator xorijiy tillarni chuqur o'rgangan, yangicha fikrlaydigan yosh mutaxassislar salmog'i ortiq. Ilm-fanda avlodlar zanjirining uzluksizligi va mustahkamligi juda muhim.

Ba'zan yoshlar orasida "Ustozsiz ham maqsadimga erishaman. Til bilaman, texnika qo'lmda, o'zim izlab, o'rganib mustaqil odam bo'laman", degan qarashlar uchrab qoladi. Garchi tarixda mustaqil ta'lim orqali buyuklikka erishgan olimlar uchragan bo'lsa-da, bu istisno holatlar bo'lib, ommaviy talqin qilib bo'lmaydi. Ustoz ilm ostonasidagi yigit-qizlarni eng to'g'ri yo'lga, eng kerakli manbalarga, eng manfaatli manzilga yo'llaydi. Aslida, shunday bo'lishi kerak.

Jamoamizning bosh maqsadi – Yangi O'zbekiston tibbiyoti va ilmfani rivojiga munosib hissa qo'shish, xalqimizga xizmat qilish, umuman, dunyodagi barcha bemorlarning dardiga darmon bo'lishdir.

– **Immunitet tizimi, allergik kasalliklar va inson genetikasi davrlarining og'riq nuqtalaridan biri. Ko'p xastaliklarga immunitet pastligi sabab qilib ko'rsatiladi. Bu nima bilan bog'liq?**

– Darhaqiqat, immunitet tizimi muvozanatining buzilishi bugungi kunda salomatlik masalasidagi eng katta muammolardan biri. Immunitetni uzil-kesil "kuchli" va "zaif" deb baholash mavzuga jo'n yondashuvdan kelib chiqadi. Immunitet tizimi to'g'ri ishlaganda, u organizmni infeksiyalardan himoyalaydi, yallig'lanishni nazorat qiladi, o'sma hujayralariga qarshi kurashda ishtirok etadi. Shu bilan birga, bu tizim o'z to'qimalariga qarshi hujumga o'tmasligi va oddiy tashqi omillarga haddan tashqari kuchli reaksiya bildirmasligi kerak.

Bugun ana shu nozik muvozanat buzilayotganini ko'ryapmiz. Oqibatda, allergik kasalliklar, autoimmun patologiyalar, surunkali yallig'lanish jarayonlari, infeksiyalardan keyingi immunitet buzilishlari, metabolik kasalliklar ko'paymoqda. Buning zahirida faqat bitta omil emas, balki irsiy moyillik, ekologik muammolar, noto'g'ri ovqatlanish, stress, infeksiyon yuklama va tartibsiz turmush tarzining birgalikdagi ta'siri yotadi.

Yana bir muhim jihat bor: har bir insonning immunitet tizimi o'ziga xos. Kimdir kasallikni yengil o'tkazadi, boshqasida esa og'ir asoratlarga qoladi. Ba'zi bemorlar organizmi umumiy davolashga yaxshi javob beradi, ba'zilariga esa mutlaqo boshqacha yondashuv kerak. Aks holda, barcha uchun yagona tibbiyot qo'llanmasi yozilib, shunga ko'ra davolanardi.

Shu nuqtada ilm-fanning kuchi yaqqol ko'zga tashlanadi. Kelajak tibbiyoti – hamma uchun bir xil sxema emas, balki insonning immunologik va genetik xususiyatlariga asoslangan shaxsiy

yondashuvdir. Bizning institut uchun ham muayyan insonda immunitet muvozanati nima uchun buzilayotganini tushunish, bu holatni vaqtda aniqlash va organizmning to'g'ri immunitet regulatsiyasini tiklash yo'llarini izlash asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

– **Bugun ijtimoiy tarmoqlarda salomatlik haqida bong uradigan blogerlar soni ortib bormoqda. Ular orasida mutaxassislar bilan birga, havaskorlarning ham uchrashi odamni cho'chitadi. Ba'zi tavsiyalarga quloq tut-sangiz, ular xorij manbasidan ko'ra ko'rona tarjima qilingani, kamida sun'iy intellekt "ilmiy izlanishlari mahsuli" ekanini fahmlaysiz. Har bir sohada o'z mutaxassisi gapirganiga nima yetsin! Immunitetni mustahkamlash bo'yicha qanday maslahatlar bergan bo'lardingiz?**

– Dolzarb bo'lib borayotgan masalani ko'tardingiz, Zarnigorxon. Men o'zim ellik yillik tibbiyot vakili bo'la turib, tashxis qo'yish va davolash bo'yicha tavsiya berishda kuchli mas'uliyat his qilaman. Tibbiy tahlillar va maxsus tekshiruvlar natijasini qo'lga olmay, bemorning kasallik tarixini o'rganmay, faqat shikoyatiga qarab yechim taklif qilish – bu, jaholat.

Organizm shunday murakkab tuzilganmi, bir a'zoning og'rig'iga umuman boshqa a'zo sabab bo'lishi mumkin. Siz aytgan internetdagi g'ayriilmiy retseptlar bo'yicha davolangan yoki sun'iy intellekt shafeligida muolaja olgan odamlarning nogiron bo'lib qolayotgani, hatto, o'lim holati kuzatilayotgani jahon axborot maydonini tez-tez larzaga solib turibdi.

Avvalo, odamlar bir narsani to'g'ri tushunishi kerak: immunitetni bir kunda "ko'tarib" qo'yish mumkin emas. Bir tabletk, bir vitamin yoki biror mashtur preparat insonni darhol sog'lom qilib qo'ymaydi. Immunitetni o'rtiqcha va asossiz aralashuvni yoqtirmaydi. Unga barqarorlik, to'g'ri ovqatlanish, yetarli uyqu, harakat va oqilona munosabat kerak.

Birinchisi – to'g'ri ovqatlanish. Kundalik ratsionda oqsil, sabzavotlar, mevalar, don mahsulotlari, zarur mikroelementlar bo'lishi kerak. Lekin bu yerda ham me'yori muhim. Bugun ko'pchilik shifokor tavsiyasiz turli vitaminlar, biologik faol qo'shimchalar, immunomodulyatorlarni qabul qiladi. Bu to'g'ri emas.

Ikkinchisi – jismoniy faollik. Albatta, hamma ham sport bilan shug'ullanishi shart emas. Oddiy yurish, muntazam harakat, me'yoriy jismoniy faollik ham immunitetni, moddalar almashinuvi va qon-tomir tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchisi – uyqu. Biz ko'pincha uyquyini yetarlicha qadrlamaymiz. Ayniqsa, kechqururlari telefon yo kompyuter qarshisiga miylanib o'tiradigan yoshlardan xavotirim bor. Inson doimiy ravishda to'yib uxlamasa, organizm tiklanishga ulgurmaydi va bu immunitetga ham ta'sir qiladi.

To'rtinchisi – stress. Surunkali ruhiy zo'riqish organizmni asta-sekin holdan toydiradi. Shuning

uchun dam olishni bilish, ichki xotirjamlikni saqlash ham kasalliklarning oldini olishning bir qismi hisoblanadi.

Albatta, tibbiy madaniyatni ham unutmash kerak. Profilaktik ko'riklardan o'tish, o'z vaqtda shifokorga murojaat qilish, zarur holatlarda emlash tavsiyalariga amal qilish muhim.

Immunitet – alohida bir a'zo emas, uni vaqtinchin "davolab" qo'yilsa. U inson hayoti, turmush tarzi va o'z sog'lig'iga bo'lgan munosabatining namoyonidir.

– **Siz qizlarning ilm-fanga kirib kelishi mushkul bo'lgan yillarda 26 yoshda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgansiz. Ko'p yillik samarali faoliyatingiz va yutuqlaringiz mevasi o'laroq, 2017-yilda akademik sharafiga erishgansiz. Yangi O'zbekiston ayoli, Uchinchi Renessans poydevorini qo'yadigan millat olimasi qanday bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz?**

– Bilim, ta'lim, ilm-fan – albatta, katta kuch. Ular ayolga ishonch, mustaqil fikrlash, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish va jamiyatga foyda keltirish imkonini beradi. Lekin ayolning ma'rifati faqat diplom, lavozim yoki ilmiy unvonlar bilan o'lchanmaydi. Ma'rifati ayol, avvalo, ichki madaniyatga ega inson. Bu – tarbiya, qadr-qimmat, mehr-oqibat, mas'uliyat, oilaga, jamiyatga va milliy qadriyatlariga hurmat demak. Juda muhim narsa bor: bilim insonga kibr bermasligi kerak. Haqiqiy bilim insonni donishmandroq, mehribonroq, sabrliroq, mas'uliyatliroq qiladi.

Bizning madaniyatimizda ayol hamisha alohida o'rin tutgan. Menimcha, zamonaviy ayolning kuchi aynan shu uyg'unlikda: bilimdonlik, kasbiy jihatdan yetuklik va faollik, shu bilan birga, samimiylik, oilaviy mehr va insonlar oldidagi mas'uliyatni saqlab qolishda ko'rinadi. Ma'rifat – inson qanchalik bilishi bilangina emas, balki o'sha bilimni qanday maqsadda ishlatishi bilan o'lchanadi. Olimning maqsadi nima, faqat shaxsiy manfaat – karyera, mukofot, mansab va shon-shuhratga erishishmi yoki jamiyat va Vatani manfaat uchun xizmat qilishmi? Shu savolning javobi muhim.

Men o'z taqdirimdan minnatdorman. Ilm-fanga, xalqimga, mamlakatimga xizmat qilish imkoniyatiga ega bo'lganimdan, O'zbekiston nomi jahon ilm doiralariida yangrashiga hissa qo'shayotganimdan baxtliman. Vatanim mendan rozi bo'lsa, oilam faxrlansa, shogirdlarim foyda olsa, institut rivojlanib, insoniyatga foyda keltirsa, demak, umrim behuda o'tmayapti.

– **Umrning bekor o'tmayotganini ko'ksingizni bezat turgan "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi" unvoni, "Mehnat shuhrati" ordeni hamda xalqaro darajadagi oltin medallar tasdiqlab turibdi. Tilagimiz: umringiz uzoq, ilmiy faoliyatingiz yanada barakali bo'lsin! Samimiy suhbatingiz uchun tashakkur!**

Zarnigor IBROHIMOVA suhbatlashdi.

JADIDONA TUHFA

Boshlanishi 1-sahifada.

KITOBXON ARMIYA

Galdagi manzil O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bo'ldi. Taqdimotda kursant va serjantlar, ofitserlar, Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirok etdi. Siyosiy fanlar doktori, professor Saidxon Saidolimov, filologiya fanlari doktori, professor Zuhridin Isomiddinov, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karim, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi, shoir Shahriyor Shavkatning ma'rualari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Bugun O'zbekiston armiyasi kitobxon armiyaga aylanib boryapti. Bu yo'lda shaxsan Oliy Bosh Qo'mondonning tashabbus va qo'llab-quvvatlovi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz ziyolilar ham ushbu jarayonga baholi qudrat hissa qo'shishga harakat qilaypmiz. Xabaringiz bor, o'tgan yili "Jadid" sahifalarida chop etilgan eng sara maqola, suhbat, reportaj va badiiy asarlar jamlanib, yaxlit to'plam holda – "Tilda, fikrda, ishda birlik!" nomi ostida nashr qilingan edi. Tahririyat ushbu xayrli ishni ezu an'ana sifatida davom ettirmoqni maqsad qilgan. Ko'plab mushtariylarning bu boradagi taklif va tavsiyalari asosida ikkinchi salmoqli kitob dunyo yuzini ko'rди, – deydi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi I.Mirzaaliyev. – Quvonarlisi, ikki yil ichida "Jadid" kutubxonasini ruhaniy shakllandi. Tarixning qorong'u nuqtalarini o'rganish, jadid harakatining ko'pchilikka noma'lum bo'lib qolayotgan a'zolari hamda qatag'on qurbonlarini elga tanitish, ularning ibratli faoliyatini taqdim va targ'ib etishga alohida ahamiyat qaratildi. "Millat fidoyilari" va "Botmasin chiqqan quyosh" kitoblari ana shu ishlar ro'yobidirdi.

Taqdimot yakunida yangi asarlar Mudofaa vazirligi kutubxonasiga sovg'a qilindi.



"VAQT MASHINASI" Dagi "JADID" KUTUBXONASI



Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga ham mazkur kitoblarni taqdim etish marosimi bo'lib o'tdi. "Jadid" tahririyati tomonidan otaxon qiroatxonaga 150 dona kitob sovg'a qilindi.

Jarayonda tarix fanlari doktori, professor, "Millat fidoyilari" kitobi muallifi Rustambek Shamsutdinov masofadan ishtirok etib, fikr-mulohazalarini bildirgan bo'lsa, adabiyotshunos va tarjimon Zuhridin Isomiddinov

mutolaadan olgan taassurotlarini davradagilarga shunday izhor etdi:

– Oqto'sh tog'larida ulkan archalarni ko'rib, hayratga tushgandim. Har bir shoxining o'zi bir daraxtday bor edi. Kamina "Jadid" gazetasini ham azim chinorga, mana bu uch kitobni uning baquvvat shoxlariga qiyosladim. Ayniqsa, "Tilda, fikrda, ishda birlik!" to'plami yillik xirmonning qaymog'i bo'libdi. Mana shu muhtasham va bezakli nashrda mening ham maqolam kiritilganidan juda xursandman.

O'zbekiston Milliy kutubxonasini rahbari Umida Teshaboyeva yangi va yaxshi kitoblar uchun tahririyat vakillariga minnatdorlik bildirar ekan, ushbu kutubxonada hatto X asrdagi qo'lyozmalar borligini, har bir kitob va bosma nashr nafaqat yillar, balki asrlar davomida saqlanishini ta'kidladi.

Bugun taqdim etilgan asarlarning maxsus nusxalari ham oltin fondga kiritiladi va kelajak asrlar uchun saqlanadi. Kelgusida ularni qo'lga olgan avlodlar go'yo vaqt mashinasida sayohat qilib, bizning kunlarimizni jonli ko'rganday bo'ladi, – dedi Umida Teshaboyeva.

Kitoblar hududlardagi axborot-kutubxona markazlariga ham yetkazilishi, ulardan respublikamizning barcha kitobxonlari bahramand bo'lishi ta'kidlandi.

"Jadid" gazetasi tahririyati Mustaqillik bayrami arafasida yangi kitoblar taqdimotini hududlarda ham o'tkazishni rejalashtirgan.

Otabek BAKIROV

XAYRLI MANBA

Boshlanishi 1-sahifada.

Bir jildli ensiklopediyani nashrga tayyorlashda ko'p sonli o'quvchilarning xohish-istaklari inobatga olingan, kitob islomshunoslik sohasidagi yangi ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan boyitilgan, tahrir hay'ati a'zolari tomonidan shakllan, mazmunan qayta ishlangan. Uni tayyorlashda mamlakatimiz va xorijdan 80 dan ortiq olim va mutaxassislar muallif, tarjimon va taqrizchi sifatida qatnashgan. Arab, turk, fors va rus mualliflari asarlaridan foydalanilgan.

Kitob O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Islom ensiklopediyasi" o'quvchilariga tabrigi bilan boshlanadi. Unda Islom ma'rifati, tarixi, shariat va tariqat qonun-qoidalari, muqaddas obidalar, dinimiz ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxslar va ularning boy merosi haqida tizimli maqolalar berilgan. Shuningdek, ilmiy-ijodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy faoliyati jamoatchilikka noma'lum bo'lgan shaxslar va qimmatli asarlar to'g'risida ham ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan.

Maqolalarning 30 foizga yaqini mahalliy, 70 foizdan ziyatid umum-

bashariy voqea va hodisalar, atamalar hamda shaxslarga bag'ishlangan. Kitobga o'zbekistonlik barcha muftiylar, mufasssirlar va dunyoga mashhur ulamolardan kiritilgan. Jami 1 ming 232 ta maqoladan 351 tasi biografik maqoladir.

Xalqimiz ma'naviyati uchun zarur bo'lgan ushbu yangi ensiklopediyaning ilmiy-akademik nashrini yaratishdan asosiy maqsad – Islom dini, tarixi, ta'limoti, uning turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy jarayonlarga ta'siri to'g'risida xolis ilmiy-tahliliy ma'lumotlar berishdan iborat. Shuningdek, kitob islomiy e'tiqod mohiyatini buzib talqin qiluvchi mutaassib, aqidaparast, ekstremist guruhlar faoliyati va ularning iddaolarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish, radikal oqimlar tahdidlarining oldini olish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Ensiklopediyaning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini inobatga olgan holda, uni dastlab ingliz, fransuz, arab, rus, keyin esa imkoniyat doirasida boshqa tillarga ham tarjima qilib chop etish mo'ljallangan.

Ozodbek ALIMOV



“Dunyodagi eng oliy baxt – bu anglash zavqi.”

Leonardo da VINCHI

”



Boshlanishi 1-sahifada.

4. **Argentina** (3 karra): 1978, 1986, 2022-yillar. Maradonaning orzu va armoni tajassumi bo'lgan jamoa.

5. **Fransiya** (2 karra): 1998, 2018-yillar. So'nggi o'n yillikning eng kuchli va balanslashgan tarkibiga ega jamoa.

6. **Urugvay** (2 karra): 1930, 1950-yillar. Birinchi Jahon chempioni va doimiy ehtimoliy da'vogar.

7. **Angliya** (1 karra): 1966-yil. Futbol vatani faqat bir marta o'z uyida zafar qochgan.

8. **Ispaniya** (1 karra): 2010-yil. "Tiki-taka" uslubi bilan dunyoni zabt etgan avlod.

YANGI FORMAT:
“MUROSASIZ
GURUHLAR”SIZ CHEMPIONAT

1998-yildan 2022-yilgacha amal qilgan an'anaviy 32 talik tizim juda oddiy va tushunarli edi: 8 ta guruhning har biridan 2 tadan jamoa keyingi bosqichga yo'l olardi. Endi esa FIFA ishtirokchilar sonini 48 taga yetkazgani sababli, format sezilarli darajada murakkablashdi. Barcha jamoalar 12 ta guruhga (har birida 4 tadan) bo'linadi. Har bir guruhda 1- va 2-o'rinni egallagan jamoalar (jami 24 ta), shuningdek, 3-o'rinni olgan eng yaxshi 8 ta jamoa keyingi bosqichga yo'l oladi. Endi play-off bosqichi an'anaviy 1/8 finaldan emas, balki 32 ta jamoa ishtirokidagi 1/16 finaldan boshlanadi.

Bunday format kuchli jamoalar uchun katta sug'urta vazifasini o'taydi. Yangi tizimda grand terma jamoalarning guruhda qolib ketishi xavfi kam. To'rtta teng kuchli jamoa bir guruhga tushib qoladigan klassik "o'lim guruhlari"ni bu safar ko'rmaymiz. Favoritlardan birining guruhdan chiqa olmasligi shunchaki omadsizlik emas, balki shov-shuvli va sharmandalı mag'lubiyat sifatida tarixda qoladi.

FAVORIT VA AUTSAYDERLAR

Jahon chempionati arafasida har doim ekspertlar va bukmekerlik idoralari o'rtasida bir xil taxminlar ilgari suriladi. Chempionlik uchun kurash odatda 7-8 ta terma jamoa o'rtasida kechadi. Bular – avval kubokni qo'lga kiritgan elita vakillari. Boshqa har qanday jamoaning g'alabasi futbol olamida katta shov-shuv va sensatsiya sifatida qabul qilinadi. Biroq turnir taqdirini faqat mahorat emas, balki fiziologik omillar ham hal qiladi. Yevropaning top-klublarida o'ynayotgan futbolchilar mavsum davomida 60-70 ta o'yin o'tkazib, jismoniy charchoq va mikrojarohatlar

bilan kelishmoqda. Bu esa uzun o'rindiqqa, ya'ni zaxira o'yinchilarining sifatiga ega jamoalarning imkoniyatini oshiradi. Keling, asosiy da'vogarlarning bugungi kundagi holatiga nazar tashlaymiz.

JCH-2026: YER “TO‘P”INING TERS TOMONIDA

Argentina. Amaldagi jahon chempioni o'z mavqeyini yo'qotgan yo'q. Ularning tarkibi to'rt yil oldingidan ham muvozanatliroq ko'rinoqda. Darvozada Emiliano Martinez kabi "psixologik urush" ustasi, yarim himoyada Enso Fernandes, hujumda Lautaro Martinez va Xulian Alvares kabi futbolchilar raqiblariga kuchli xavf tug'diradi. Lionel Messi – jamoaning ruhiy yetakchisi. Hatto u o'zining yuqori jismoniy formasida bo'lmasa ham, uning maydonda bo'lishining o'zi raqiblar uchun katta bosim.

Fransiya. Sayyoradagi eng kuchli yulduzli tarkib. Fransiya terma jamoasining ro'yxatiga qarab, ularning istalgan ikkita tarkib tuzish imkoniyati borligiga tan berasiz. Vilyam Saliba va Ibraima Konate himoyada toshdek qotgan bo'lsa, Chuameni va Ngolo Kante kabi futbolchilar yarim himoyani to'liq nazorat qiladi. Mbappe, Dembele, Barkolya, Tyuram, Olise va Sherki. Bu ro'yxatning o'ziyoq istalgan raqib murabbiyini sarosimaga solishga yetarli. Fransiya da zaxira degan tushuncha yo'q – u yerda faqat teng kuchlilar bor.

Ispaniya. Amaldagi Yevropa chempioni mundialga mutlaqo yangicha qiyofada kelmoqda. Tarkibda "Barselona" o'yinchilari – Pedri, Ferran Torres va Lamin Yamal asosiy rollarni o'ynaydi. Madridning "Real" klubidan birorta ham o'yinchining yo'qligi – ispan futbolidagi katta o'zgarishlardan darak. Bu ishtirokchilar uchun qo'shimcha motivatsiya bo'lishi aniq. Ular klublar o'rtasidagi raqobatni milliy terma jamoa muvaffaqiyati bilan isbotlamoqchi.



Yana to'ldiruvchi da'vogarlar bormi? Kimlar sensatsiya qilishi mumkin? Bukmekerkar Germaniya, Niderlandiya va Portugaliyani "ikkinchi eshelon" favorittlari qatoriga qo'ymoqda. Ularning imkoniyati biroq pastroq baholanayotgan bo'lsa-da, futbolda hech narsa kafolatlanmagan.

Germaniya. Doimo kutilmagan natijalarga qodir, o'ta intizomli jamoa.

Portugaliya. Tarkibida Ronaldu va kuchli avlod bo'lsa-da, asosan jamoaviy o'yindagi barqarorlik ularni doimo yetakchilar ro'lida qoldiradi. Ronaldu Portugaliya terma jamoasining eng katta ustunligi – ayni paytda uning eng katta muammosi hamdir. U Jahon chempionatida g'olib bo'lib, o'z faoliyatiga muhtasham yakun yasashni orzu qilmoqda. Biroq butun terma jamoa o'z yulduzining shaxsiy rekordlar sari intilishiga xizmat qiluvchi asirga aylanib qolgandek taassurot uyg'otmoqda.

Niderlandiya. Taktik jihatdan murakkab, texnik o'yinchilarga boy jamoa. Jahon chempionatlarining "abadiy omadsizlari" ko'pincha chiroyli futbol o'ynab, final va yarim finallarda qoqilgan "uchar gollandlar" bu safar soyardan chiqib, kutilmagan zarba berishga harakat qilishadi.

Angliya. Futbol asoschilari bo'lmish inglizlar oxirgi va yagona marta roppa-rossa 60 yil avval – uzoq 1966-yilda o'z uylarida jahon chempioni bo'lishgan. O'sha tarixiy tarkibdan bugungi kunda bor-yo'g'i uch nafar futbolchi hayot, xolos. Angliya har bir turnirga asosiy favorit sifatida tashrif buyuradi, biroq har safar hal qiluvchi pallada pand yeyishadi. Yaqin o'tmishdagi og'riqlarni esga oladigan bo'lsak, 2018-yilgi JCH

yarim finalida Xorvatiyaga taslimiyat, undan keyin esa ketma-ket ikkita Yevropa chempionati finalidagi (2021 va 2024) alamli mag'lubiyatlar inglizlarning ruhiyatiga qattiq ta'sir qilgan. Jamoaning asosiy umidi – Myunxenning "Bavariya" klubida fenomenal mavsumni o'tkazgan markaziy hujumchi Harri Keyn. Faoliyati davomida hali biorta ham jamoaviy sovrin yuta olmagan Keyn uchun bu mundial omadsizlikni buzish va tarixga kirish uchun eng so'nggi imkoniyat bo'lishi mumkin.

Braziliya. Bu safagi mundialda besh karra jahon chempionlari asosiy favorit sifatida ko'rinmayapti. Jamoada yulduzlar yetarli, biroq ularning deyarli har biri bilan bog'liq jiddiy savollar mavjud. Vinisius ("Real Madrid") va Endrik ("Lion") o'zlarining maydondagi va undan tashqaridagi og'ir va injiq xarakteri bilan nom qozonishgan. Ular jamoaviy intizomni buzib qo'yishlari mumkin. Joriy mavsum oxirida ajoyib o'yin ko'rsatib, "Manchester Yunayted"ni APLda 3-o'ringa olib chiqqan bo'lsa-da, 34 yoshli Kazemirodan avvalgi tezlik va irodani kutib bo'lmaydi. Tarkibda hozirda "Santos" sharafini himoya qilayotgan Neymarga ham joy topildi. Biroq faoliyati davomida og'ir jarohatlar iskanjasida qolgan futbolchining ushbu uzoq va og'ir turnirda to'liq sog'lom holda o'ynay olishi katta so'roq ostida.

Xorvatiya. 2018-yilgi finalchi va 2022-yilgi bronza medali sohiblari bu safar ham o'zlarining matonatli o'yinlari bilan hayratda qoldirmoqchi.

Belgiya. Kevin de Bruyne va Romelu Lukaku boshchiligidagi oltin avlod o'z imkoniyatlaridan to'liq

foydalana olmadi. Bu yil ular uchun ushbu buyuk avlod nomini chempionlik toji bilan bezash uchun eng so'nggi imkoniyatdir.

So'nggi Afrika Kubogi finalchilari – **Marokash** va **Senegal** ham turnirning asosiy syurprizchilari bo'lishga nomzod.

Tarix va nomlar futbol o'ynamaydi. JCH-2026 da chempion bo'lish uchun Angliya o'z tarixiy qo'rquvini yengishi, Braziliya ichki kelishmovchiliklardan xalos bo'lishi, Portugaliya esa shaxsiy manfaatlardan jamoa sharafini ustun qo'ya olishi kerak. Bu uchta granddan qaysi biri o'z ichki muammosini tezroq hal qilsa, o'sha jamoa Nyu-Yorkdagi final sari dadil qadam tashlashi mumkin.

O'ZBEKISTON DEBYUTI

O'zbekiston milliy terma jamoasi ushbu chempionatning eng kutilgan va diqqat markazidagi debyutantlaridan biridir. Ayniqsa, xorijlik ekspertlar tarkibimizdagi bir futbolchiga alohida e'tibor qaratishmoqda.

Abduqodir Husanov Angliyaning grand klubi – "Manchester Siti"ning asosiy tarkibidan mustahkam joy olgan yosh himoyachimiz. Nafaqat Osiyoning, balki dunyoning eng iqtidorli markaziy himoyachilaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Uning Gvardiola qo'l ostida ko'rsatgan o'yinlari O'zbekiston terma jamoasining mudofaa chizig'iga Jahon chempionatida juda katta ishonch bag'ishlaydi. Ammo birinchi ishtirok katta sinov va tajriba maktabidir. Jahon chempionati sof futboldan tashqari, o'ta og'ir ruhiy bosim, yuqori jismoniy yuklama va dunyoning eng sara yulduzlariga qarshi kurash demakdir. Xo'sh, biz debyutantlik

sindromini yengib o'ta olamizmi? Jahon chempionati debyutantlari tarixiga nazar solsak, ilk bor bunday nufuzli musobaqaga chiqqan jamoalar odatda ruhiy bosimga duch keladi.

Qolaversa, Osiyo qit'asidagi futbol tezligi va jismoniy kurash darajasi Yevropa yoki Janubiy Amerikanikidan ancha farq qiladi. Grandlarga qarshi o'yinda soniyalar va kichik xatolar ham qimmatga tushadi. Raqiblar tarkibida jahon darajasidagi turnirlarda o'ynab pishgan yulduzlar bor, bizning yigitlar uchun esa bu birinchi martadir. Biroq, bu unsurlar bizning muvaffaqiyatsizlikka uchrashimizni anglatmaydi. O'zbekiston milliy terma jamoasi ushbu sinovga tayyor bo'lib bormoqda. Bugungi terma jamoamiz shunchaki tasodif tufayli JChga chiqqani yo'q. Bizda yillar davomida shakllangan va ayni paytda eng yuqori sport formasiga kirgan "oltin avlod" mavjud. Bugungi tarkibimiz faqat mahalliy chempionat o'yinchilaridan iborat emas. Bizda kuchli beshlik ligalarida va Yevropada o'ynovchi, bosim ostida o'ynashga o'rgangan futbolchilar bor. Abduqodir Husanov yulduzlarga qarshi muvaffaqiyatli o'ynagan yosh himoyachimiz. U himoyamizning haqiqiy devoridir. Abbosbek Fayzullayev (Istanbul "Bashakshehir") kreativlik va tezlik bobida jamoamizning eng xavfli quroli. Uning maydonni ko'rish qobiliyati va nostandart qarorlari Mundialda raqiblarni hayratda qoldirishi mumkin. Eldor Shomurodov (Istanbul "Bashakshehir") terma jamoamiz sardori va eng tajribali o'yinchisi. Uning Italiyada o'tirtgan tajribasi jamoaga ruhiy xotirjamlik beradi. Bosh murabbiyimiz Fabio Kannavaro juda tajribali va natija uchun o'ynaydigan mutaxassis. Guruhdan 3 ta jamoaning chiqish imkoniyati, bitta g'alaba yoki ikkita durang ham bizni keyingi bosqichga olib chiqishi mumkin. Bu debyutant jamoalar uchun juda katta imkoniyatdir. Munosib o'yin ko'rsatish, guruhda kamida bitta tarixiy g'alabani qo'lga kiritish va dunyoga o'zbek futbolı nimalarga qodirligini namoyish etish keyingi avlodlar uchun poydevor bo'ladi. Jismoniy kuch, Yevropada toblangan yoshlarimiz va murabbiyning taktikasi bizga guruhda istalgan raqibga qarshi jiddiy qarshilik ko'rsatish imkonini beradi. Yigitlarimizga ishonamiz!

Hayajonli va tarixiy lahzalar guvohiga aylanishga tayyor turing, chunki o'zbek futbolining yangi erasi aynan hozir boshlanmoqda! Bizning futbolchilarimizdan tashqari, ushbu turnirda Haiti, Kabo-Verde, Iroq va lordaniya kabi kamnamo va kamsuqum jamoalar ham ishtirok etadi.

Iqbol MIRZO

KUN SAVOLI

RAMZLARNI KIM YARATADI?

O'zbekiston futbolı tarixida ilk bor milliy terma jamoa madhiyasi kompozitor, shoir yoki ijodiy jamoa tomonidan emas, balki sun'iy intellekt algoritmi yordamida yaratildi. Xo'sh, buni qanday qabul qilish mumkin?

Ma'lumki, har qanday musiqiy asar badiiy mazmun va muayyan melodiya, ritm, garmoniya, tembr dramaturgiyasi, shakl va boshqa ifoda vositalariga ega bo'ladi. Kompozitor asarni faqatgina kasbiy bilim va mahorati tufayli yaratmaydi. Uning hayotiy tajribasi, hissiy qerashmalari, madaniy xotirasi, dunyoqarashi va individual uslubi ham asar to'qimasiga singib ketadi.

Sun'iy intellekt esa boshqacha ishlaydi. Uning faoliyati mavjud asarlarning ulkan miqdorini tahlil qilish va ehtimoli yuqori bo'lgan badiiy yechimlarni statistik modellashtirishga asoslanadi. Shu bois, algoritmlar dolzarb tendensiyalarni aniqlash, turli musiqiy elementlarni birlashtirish va belgilangan talablarga tashqi jihatdan mos keladigan kompozitsiyalarni yaratishga qodir. Tabiiy savol tug'iladi: bunday hol madaniy ramz maqomiga da'vogar bo'lgan asarni yaratish uchun yetarliymi?

Musiqi san'atida madhiya janri alohida o'rin tutishini bilamiz. Uning vazifasi faqat muayyan g'oyani ifoda etish emas, balki milliy birdamlik, yurt taqdiriga daxldorlik va jamoaviy o'zlik tuyg'usini shakllantirishdan iborat. Yaxshi madhiya yorqin va oson esda qoladigan melodik kuyga, aniq shakliy tuzilishga,

ta'sirchan naqoratga ega bo'lib, jamoaviy ijro etish imkoniyatini taqdim etishi lozim.

Futbol tarixida bunday asarlarning mutlaq muvaffaqiyat qozongan namunalari talaygina. 2008-yilgi Yevropa chempionatining rasmiy qo'shig'i xonanda Enrike Iglesias tomonidan kuylanib, musobaqaning muhim madaniy voqeasiga aylangan. Shuningdek, Riki Martinning 1998-yilgi jahon chempionati ramziga aylangan "The Cup of Life" asari, 2004-yil Portugaliyadagi Yevropa chempionati bilan bog'liq bo'lgan "Força" kompozitsiyasi, Shakiraning 2010-yilgi Janubiy Afrika Respublikasidagi jahon chempionati uchun yaratilgan "Waka Waka" qo'shig'i hamda 2014-yil Braziliyadagi jahon chempionatining "We Are One" (Ole Ola) qo'shig'i jahon miqyosida mashhurlikka erishgan.

Musiqiy tilidagi farqlarga qaramasdan, yuqorida keltirilgan asarlarni bir qator umumiy xususiyatlar birlashtirib turadi: aniq kompozitsion shakl, ta'sirchan melodizm, ritm va kuy yo'lining uyg'unligi hamda ommaviy ijro uchun qulaylik. Aynan shu xususiyatlar ushbu qo'shiqlarning muxlislar ma'naviy-madaniy xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishini ta'minlaydi.

25-may kuni O'zbekiston terma jamoasini jahon chempionatiga kuzatish marosimida taqdim etilgan futbol madhiyasi jamoatchilik

orasida turlicha munosabatlarga sabab bo'ldi. Musiqiy dramaturgiya nuqtayi nazaridan mazkur asarda zamonaviy generativ musiqaga xos jihatlar kuzatiladi. Asarda musiqiy materialni yodda qoldiruvchi aniq kuplet-naqorat tuzilishi yetarli darajada shakllanmagan. Melodik yo'l esa jamoa yoki mamlakatning musiqiy ramziga aylanishi mumkin bo'lgan yorqin va kuychan ohangga ega emas. Shu bois, asar ommaviy ijro va jamoaviy qabul uchun jozibali emas.

Asarning adabiy jihati ham ayrim savollarni tug'diradi. Matnda vatanparvarlik shiorlari va hissiy chaqiriqlar mavjud bo'lsa-da, u keng badiiy obrazlar tizimi yoki individual poetik bayonni taklif etmaydi. Holbuki, aynan she'riy matnning badiiy teranligi bunday asarlarning uzoq umr ko'rishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Albatta, zamonaviy texnologiyalar yordamida qo'shiqlar, madhiyalar, simfoniya va hatto operalarni ham yaratish mumkin. Bugungi kunda bunday texnologiyalar kompozitorlar, aranjirovkachilar va ovoz rejissyorlari faoliyatining muhim qismiga aylanib borayotgani ham sir emas. Ular asarning ohangdorligini ta'minlash, aranjirovka jarayonini tezlashtirish va ko'plab texnik vazifalarni hal qilishga yordam beradi.



Muammo texnologiyaning o'zida emas, balki texnologiya madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda insonning o'rmini bosishga urinayotganida yuzaga keladi. Agar asosiy ustuvorlik musiqiy mahsulotni tez ishlab chiqarish va u bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan bo'lsa, kompozitorlar, shoirilar, aranjirovkachilar, musiqachilar va boshqa ijodiy kasb egalariining ahamiyati asta-sekin pasayib boradi. Shu bilan birga, jamiyat nafaqat ish o'rinalarni, balki qobiliqni muallif shaxsi orqali badiiy anglash an'anasini ham yo'qotish xavfiga duch keladi.

Yana bir muhim holatni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bugun mamlakatning madaniy ramzi maqomiga da'vogar bo'lgan musiqiy asarlarni yaratish ko'p sonli mutaxassislar ishtirokida jamoaviy tarzda amalga oshiriladigan ijodiy jarayonga aylangan. Sun'iy intellekt ayrim vazifalarni bir necha daqiqada bajara oladi, xolos, insonlar jamoasi esa buning uchun kunlar va haftalarni sarflaydi. Shuning uchun masala kompozitorning algoritm bilan raqobatida emas, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega asarlarni yaratish jarayonida ijodkor insonlar jamoasining o'rini saqlab qolishdadir.

Mamlakatni xalqaro maydonda namoyon etadigan asarlarni yaratish nafaqat badiiy, balki madaniy-siyosiy vazifa ham hisoblanadi. Bunday asarlar davlatning intellektual salohiyatini, milliy madaniyatning taraqqiyoti darajasini va jamiyatning o'z ijodiy merosiga nisbatan bildirgan munosabatini aks ettiradi. Shu bois rasmiy xarakterdagi madhiyalar, bayram qo'shiqlari va boshqa madaniy



Oydin ABDULLAYEVA,
kompozitor, professor

ramzlarni yaratishda professional ijodiy jam-jamiyatlarni qo'llab-quvvatlash va inson mual-lifligi ustuvorligini saqlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Yangi texnologiyalardan foydalanishning o'zi muammo emas. Ammo mamlakatning madaniy ramziga aylanishi mumkin bo'lgan asarlarni yaratishda asosiy mas'uliyat buyurtmachilar va tashkilotchilar zimmasida bo'ladi. Chunki aynan ular jamiyat hayotida ijodkorlarga qay darajada e'tibor ko'rsatilishi va madaniy qadriyat-larni shakllantirishda qaysi tamoyillar ustuvor bo'lishini belgilaydi.

Sun'iy intellekt ijodiy jarayonni taqlid qila oladi, ammo u inson kechinmalari, madaniy xotirasi va haqiqiy badiiy mas'uliyatning o'rmini bosa olmaydi. Agar jamiyat algoritmlarga faqat arzonligi va tezkorligi uchun ustuvorlik beradigan bo'lsa, u nafaqat ayrim kasblarni, balki san'atning inson qalbi va tafakkurining noyob ifodasi ekanini anglash qobiliyatini ham yo'qotishi mumkin.

Texnik jihatdan qanchalik mukammal bo'l-masin, algoritmlar tomonidan yaratilgan har qanday madhiya mualliflik, milliy madaniy o'zlik va san'atda insonning o'zi bilan bog'liq jiddiy masalalarni keltirib chiqaradi. Bu esa faqat musiqa san'ati doirasi bilan cheklanib qolmay, bugungi kunning eng muhim falsafiy muammolaridan biriga aylanmoqda.



OLTIN QOZIQ

“Jadid” gazetamizning oʻtgan, ya’ni 5-iyun sonida ustoz Ibrohim G’afurovning qariyb sakson yillik sirdosh do’ssti, safdoshi va maslakdoshi, O’zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov haqidagi ikki sahifadan iborat xotiralarini o’qigan edik. Ushbu “Bolalik hikoyalari” bilan tanishgan kishilarning barchasi to’qson yosh ostonasiga qadam qoʻygan, og’ir xastalikni boshidan kechirayotgan mutafakkir adibning botiniy kuch-shijoati, aql-idrok va hofiza quvvatiga yana bir bor tan bergan edi.

Lekin, vodarigʻ, taqdiri azalning ilohiy hukmini qarangki, oradan bir hafta oʻtib, u kishining oʻzlari xususida mana shu yodnoma soʻzlarini bitishga toʻgʻri kelib turibdi.

Bu qaygʻuli voqeadan dastlab davlatimiz rahbarini voqif qildik. Shavkat Miromonovich barcha ziyolilar, ilm-fan va ijod ahli qatori Ibrohim G’afurovni ham g’oyat e’zozlar, iz-zat-hurmatini joyiga qoʻyar edilar. Bu xabarni eshitib, u kishi juda mutaassir boʻldilar. Davlat va hukumat rahbarlari nomidan e’lon qilinadigan ta’ziyanomaga imzo chekar ekan, Ibrohim akaning oila a’zolari, barcha yaqinlariga oʻz hamdardligini yetkazib qoʻyishimizni soʻradilar. Suhbat asnosi marhum adibimizning ezgu fazilatlarini yana bir bor hurmat bilan esladilar:

“Ibrohim G’afurov timsolida men butun hayotini ma’naviyat, ma’rifat ravnaqiga bag’ishlagan fidoyi, halol, kamtarin bir insonni koʻrar edim. U kishi oʻzi sevgan, ixlos qoʻygan buyuk Navoiy bobomiz kabi yuragi pok, oliyjanob, matonatli shaxs edi. Shu bois bundan besh yil oldin el-yurtimizga juda katta xizmat qilgan, oʻzining huzur-halovati, oromidan kechib, odamlarga, jamiyatga bir umr ilm-u ziyo, ma’rifat ulashib yashagan ulugʻ adibimizga “O’zbekiston Qahramoni” degan yuksak unvon berish toʻgʻrisidagi Farmonga xursandchilik bilan imzo chekkan edim.

Yaxshi esimda, bir kuni Erkin Vohidov bilan ona tilimiz haqida soʻzlashib qoldik. Shunda, u kishi bir gap aytdi: “Agar kimda-kim oʻzbek tilining bor jozibasini, tarovatini his etmoqchi boʻlsa, Ibrohim G’afurovga, uning asarlariga murojaat qilishi kerak”.

Bu gapni Erkin aka chin yurakdan, mehr bilan, samimiyat bilan ta’kidlagan edi. Bu fikrda katta ma’no, katta haqiqat bor, deb oʻylayman... Yaratgan parvardigor Ibrohim akamizning oxiratinini obod qilsin”.

Shundan soʻng davlatimiz rahbari qahramon adibimizning dafn va ta’ziya marosimlarini munosib darajada oʻtkazish toʻgʻrisida tegishli mutasaddilarga topshiriq berib, yana bir bor adabiyot va madaniyat ahliga, butun xalqimizga hamdardlik izhor qildilar.

Erta ne boʻlishini, albatta, Alloh taolodan oʻzga hech bir zot bilmaydi, ammo ajib bir holat koʻpchilikka tanish. Ya’ni, ba’zi insonlar vafot etgach, yaqinlari, yor-birodarlari u kishini “Rahmatli xuddi bu dunyodan ketarini bilgandek gapirgan edi-ya”, deb mahzun bir hayrat ila eslaydilar.

Bugun istozning “Jadid”da bosilgan soʻnggi bitiklarini qayta oʻqir ekanman, garchand ular Erkin Vohidov toʻgʻrisida boʻlsa-da, ayrim oʻrinlari menga baayni Ibrohim akaning oʻzi haqida yozilgandek tuyulmoqda:

“Birdan bolalarning gap-soʻzlarini aniq-taniq eshita boshladi: “Xasti imomga boraylik. Erkinga Xasti imomni koʻrsatamiz. U yerdagi chinorni, eski mozorni, machitni koʻrsin...”

“Xasti imom... Rost... Xasti imomni koʻrmaganman. Katta, chiroyli maqbara bor emish... Hazrati imom... Koʻrmaganman... Bilmayman...”

Ibrohim aka ana oʻsha afsonaviy Xasti imom mavzesiga yondosh Teshik qopqoq (Teshik qopqa) mahallasida tugʻilgan, bolalik do’ssti, sinfdoshi, Erkin Vohidovning bu joylarga talpinishi

bejiz emas edi. Chunki boʻlgʻusi shoiring ota-onasi shu koʻhna mozoriston-ga dafn etilgan edi. O’spirin chogʻida o’rtloqlari bilan Kalkovuz (Kaykovus) anhorida choʻmilib qaytishar ekan, Erkin Vohidovning beixtiyor:

“Ota-onamni koʻrishim kerak. Ular shu yerda. Teshik qopqoqda, qabrda... koʻrishim kerak... koʻrishim kerak... koʻrishim kerak... sogʻindim juda...”, deya koʻzlari yoshlanadi.

Hasrat va anduhga toʻla bu soʻzlar muborak juma kuni gazeta sahifalarida chop etilgan edi. Shanba kuni, peshin chogʻi esa Ibrohim aka bandalikni bajo keltirdi. Yakshanba tong saharida, osmonda hali olis yulduzlar shu’lasi o’chib ulgur-magan subhi sodiqda shahar markazida joylashgan, eski konservatoriya qarshisidagi mashhur Yozuvchilar uyi hovlisidan donishmand allomaning parqudek yengil tobuti oxirat safariga koʻtarildi. Bino oldidagi maydoncha va uning yon-atroflari ustozning qavm-u qarindoshlari, mahallako’y, hamkasb-u shogirdlari, turli daha va mavzelardan yetib kelgan yuzlab muxlis-lari bilan liq toʻldi.

Shunda hech kutilmagan, barchaning e’tiborini oʻziga tortgan bir voqea sodir boʻldi: maydonga kulrang tusdagi bir xil toʻn-do’ppi kiyib, adras qiyiq bilan belini bogʻlagan yigirma chogʻli navqiron yigitlar bir saf boʻlib kirib kelishdi va bahamjihat boʻlib, tobutga yelka tutishdi. G’ira-shira qorong’ilikda ularning ayrim-larini tanigandek ham boʻldim: Rustam Mirvohid, Shodi Otamurod, Shahriyor Shavkat, Erkin Hojimuhammad, Muhammad Siddiq, Masihulloh Madaminov, Fozil Farhod, Muhammadali G’afforov, Ozodbek Ravshanov, G’iyosiddin O’nar kabi shoir-adiblar ekan.

Yonimda turgan salobatli, kayvoni oqsoqollarimizdan biri boshi bilan ishora qilib, “Bular, albatta, Ibrohimjon akaning farzandlari boʻlsa kerak?” deb soʻradi. “Shunday, – dedim boʻgʻzimga tiqilib kelgan xoʻrsiniqni arang yutib. – Ma’naviy farzandlari”.

Keyin bilsam, bu esli, diyonatli yoshlar “Ustozning farzandlari Humoyun akamiz yolgʻiz o’gʻli ekanlar, yolgʻizligi bilinmasin”, deb shunday qaror qilishgan ekan.

Holbuki, marhumning jon-jigarlari, kuyovlari, nabira-yu jiyanlari Humoyunning yonida bel bogʻlab turishardi. Uyushmamiz rahbarlari Minhojiddin Mirzo, G’ayrat Majid kabi do’stlarimiz ham motam libosida edilar.

Marhum pir-u ustozlarga bu kabi yuksak hurmat, mehr-oqibat va sadoqat namunasini bir paytlar orqasida o’gʻil-qizi, zuryodi qolmagan Abdulla Qahhor vafot etganida, rahmatli O’lmas Umrabekov boshliq o’n nafar yosh adib xuddi shu tarzda namoyon etganini, buyuk adibning ta’ziyasida hassakash boʻlib turganini menga bu voqeani o’z ko’zi bilan koʻrgan Nosir aka Fozilov soʻzlab bergan edi.

Alloh barchalarimizdan rozi boʻlsin, arjumand birodarlarim...

Shahar markazidan qoʻzgʻalgan tumonat odam Xasti imom masjidiga yetib bordik. Bomdod namozi o’qildi. Muftiy, shayx Nuriddin Xoliqnazar hazratlari kuni kecha muborak haj safaridan qaytib kelgan, biroz shamollagan, horg’in edilar. Ammo azbaroyi adabiyotimiz darg’asiga boʻlgan hurmat-ehtiromlari bois bu yerga tashrif buyurib, janoza namoziga oʻzlari imomlik qildilar. Muxtasar va’z aytib, ustozimiz xotirasini yodga oldilar:

“Imom Termiziy hazratlari rivoyat qilgan muborak hadisda aytilishicha, odam bolasi vafot etganidan so’ng amali kesilar, ya’ni, uning hech qanday savobli ish qilishga imkoniyati qolmas ekan. Faqat uch narsa bundan mustasno. Birinchisi – sadaqayi joriya, ikkinchisi – foydali ilm, uchinchisi – marhumning haqiqat duo qilguvchi solih farzandlardan borib turadigan savob to’xtamas ekan. Sadaqayi joriya deb bu foniylar dunyoda qilingan, el-yurtga naf keltiradigan xayrli amallarga aytiladi. Chunonchi, yo’l yoki ko’prik, maktab, madrasa yoki masjid, shifoxona qurish, bog’-rog’lar yaratish...”

Agarkai kishi o’zidan keyin xalq uchun manfaatli bir ma’naviy meros, yaxshi

kitob, bilimli, iymonli shogird qoldirgan bo’lsa, toki uning ilmi-yu ijodidan insonlar bahramand bo’lar ekan, bunday odamning ham vafotidan so’ng amali kesilmas ekan.

Rahmatli Ibrohimjon akamiz Alloh taboraka taoloning ana shunday saodatli bandalaridan ekanki, ortlaridan ko’p oliyjanob ishlar, Haqni tanishga, ezgulikni ulug’lashga chaqiradigan o’nlab kitoblar, munosib shogirdlar, solih va solih farzand-u nabiralari qoldirdilar.

U kishining “Hayo – xaloskor” degan bir kitobi bor, katta e’tibor va qanoat bilan o’qiganman. Aziz birodarlar, sizlarga ham o’qishni tavsiya qilaman. Zero, hayo – iymonning bir ustuni, buyuk ne’mat ekanini hisobga olsak, muhtaram adibimiz bu kitobi bilan qanday ulug’ va xayrli ishni amalga oshirib ketganliklarini anglashimiz mumkin bo’ladi. Kamina xodimingiz ham u kishining ummondek cheksiz ilmidan, nurli ijodidan bahramand bo’lgan odamlar qatorida ekanim bilan doimo faxrlanaman. Ilohim, Parvardigori olam u zotni o’z rahmatiga olib, joylarini jannati na’imlardan nasib etsin...”

Janoza ham tugadi, Teshik qopqoq qabristoniga qarab yo’l oldik. Ming yillik tarixlarni ko’rgan, ne-ne sir-sinoatlarga guvoh bo’lgan Toshkandning bu qadim ko’chalari bo’ylab tobut ortidan qayg’u ila ergashib borar ekanman, “Ota-onamni ko’rishim kerak. Ular shu yerda. Teshik qopqoqda... sog’indim juda...” degan so’zlar qulog’im ostida yangrar, ular Ibrohim akaning ko’ngil tubidan chiqqan far-yodga o’xshab tuyular edi.

Butun borliq sirli sukunat og’ushida, bobo quyosh ham hali ufqdan bosh ko’tarmagan, kecha-yu kunduz olam dengizidek guvillab yotadigan ulkan shahar suv quygandek tip-tinch, bamisoli tabiatning o’zi ham bu ulug’ farzandi bilan so’zsiz-unsiz vidolashmoqda edi.

Hademay, Ibrohim aka “Jadid”dagi o’sha maqolasida yozganidek, “Teshik qopqoq mozorining darvozasiga yetib bordik.... Darvoza haddan tashqari eski, bir zamonlar unga o’yib solingan turli gajim naqshlar qorayib, tund tusga kirgan, yorilgan, lekin hali mustahkam edi...”

Albatta, endi u qopqaning o’rniga zamonasiga mos va xos, yangi, muhtasham darvoza o’rnatilgan edi. Motam ahli qabriston yo’lagidan ichkariga kirib keldi. Va shunda barchani tong qoldirib, yana bir ajib hodisa yuz berdi: to’rdagi – kunchiqar tomonga qaratib solingan oynaband ayvonning baland ustunlariga qator qilib osilgan, bilmadim, o’n besh yoki yigirma chog’li to’rqovoqlardagi bedanalar, xuddi



ularga kimdir buyruq bergandek, birdaniga paydar-pay, dardli bir ovozda sayray ketdi. Hammamiz lol bo’lib qoldik. Go’yoki Xudoning bu beozor qushchalari o’z tilida so’zlab-bo’zlab, o’zlari kabi beozor bir insonni so’nggi yo’lga kuzatayotgandek edi...

Qulog’im ostida esa hamon maqoladagi so’zlar:

“Otam ham shu darvozadan kirgan, onam ham shu darvozadan kirgan...”

Ajabol! Axir, ustozimizni dafn etish to’g’risida yaqinlari bilan mashvarat-ken-

gash qilganimizda dastlab bir necha boshqa joylar, jumladan, “Forobiy” (Chig’atoy) qabristoni ham tilga olingan edi. Lekin, oxir-oqibatda, xonadon egalari u kishini o’zlarining oilaviy xilxonasi bo’lmish Teshik qopqoq mozoriga dafn etishga qaror qildilar va shu bois biz hozir shu yerga kelib turgan edik. Albatta, bunda ham yolg’iz Alloh taoloning o’ziga ma’lum bo’lgan pinhoniy bir hikmat bordir.

Tobut ko’targan izdihom aylanib-aylanib, daraxtlar, butalar orasida to’xtadi. Mozorni may oyida juda qalin, odam bo’yi barobar qalin o’t bosgan edi. Qabr qazilgan edi”.

Muftiy hazrat boshchiligida bir necha kishi qabr yaqinidagi shiypunchaga chiqib o’ltirdik. Beixtiyor yon-atrofga razm solaman – manzara ayni Ibrohim aka tasvirlagandek:

“U yerda juda katta qo’noq tut daraxti tarvaqaylab o’sgan, mevalari yerga gilamday to’kilib, sariq magiz bo’lib qolgan edi”.

Habibulloh qori “Taborak”ni odamni sel qilguvchi qiroat bilan tilovat qildi. Shayx janoblari fотиha o’qidi.

Shu tariqa o’zbek xalqining ulug’ farzandi, ulug’ mutafakkirini ona yer bag’riga, o’zi ardoqlab-suygan, intilib-talpingan tabarruk maskan bag’riga topshirdik. Ammo ustozning g’oyibona savollari har birimizni so’roqqa tutar edi:

“Qabristonlar, maqbaralarni Adam sahrisi der ekanlar. Nega? Nega Adam sahrisi? Yo’qlik, bebunyod der ekanlar. Bebunyod va yo’qlik nima? Nima degani? Mana shu bugun biz uchratgan narsa yo’qlik dunyosimi?”

Mana shunday ezgin o’y-xayolar og’ushida “mozordan hammamiz ma’yusgina bo’lib chiqqanimizdan keyin” yana shahar markaziga qaytdik. Ta’ziya marosimi boshlandi.

Uch kun mobaynida bu dargohdan azim Toshkentning, butun mamlakatning adib-u arboblari, ulamo-yu olimlari, fozil-u kiromlari, siyosat, madaniyat va ish odamlarining, yosh avlod, turli millat va elat vakillarining qadami uzilmadi.

Uch kun mobaynida qarindoshlari, do’st-u yorlari, shogirdlari marhum, mag’fur Ibrohim G’afurovning go’zal insoniy fazilatlarini eslab o’ltirdilar.

Shuhrat Rizayev: “Bundan bir yarim oylar oldin edi, bahor bo’lsayam, havo xuddi yozning kunidek isib ketgan. Ishxonada o’tirsam, to’satdan Ibrohim aka kelib qoldilar. Anchadan beri toblari



yo’qligini bilardim, shuning uchun ham hayron bo’ldim, ham ko’rganimdan xursand bo’ldim. “Bahay, bu jaziramada biz tomonlarga qaysi shamol uchirdi, Ibrohim aka?” deb so’radim.

Rahmatli ustoz Yozuvchilar uyushmasiga borgan ekanlar. “Ishimni bitirib, bir yo’la Adiblar xiyobonini ham ziyrat qildim, – dedilar. – U yerdan chiqib, yoshlik davrlarni eslab, suv yoqalab sizning oldingizga kelaverdim”, deb kulib qo’yidilar. Odamlar bunday paytda ulovda yurish tugul, uydan chiqqani erinadi. Us-

toz esa shuncha yo’lni piyoda bosib ke-libdilar.

Biroz gurunglashib o’tirdik. Bizga nima xizmat, deb so’radim.

“Komil Yormatov elliginchi yillarda “Opa-singil Rahmonovalar” degan kino olgan edi. Shu filmdagi bir faktni aniqlash zarur bo’lib qoldi, – dedilar. – Sizlar bilsalaringiz kerak, deb keldim”.

Tezda tegishli xodimni chaqirib, so’ragan ma’lumotlarini topib berdik. Gap orasida “Shuhratjon, “Ulug’ amir va donna Mariya” degan film chiqibdi, matbuotda ko’p gaplar yozilyapti, premýerasi ham bo’lib o’tibdi, nega meni chaqirmadinglar?” deb ginaxonlik qilgandek bo’ldilar.

“Betob ekaningizni eshitib, bezovta qilmaylik, degan edik. Bo’ldi, ustoz, siz uchun yana bir namoyishini tashkil qilamiz”, degan edim, “Yo’q, rahmat, ovora bo’lmang, Telegramdan tashlab qo’y-sangiz, uyda telefonimdan bemalol ko’rardim”, dedilar. Iltimoslarini bajo keltirdik. Erta-siga qo’ng’iroq qilib, “Bu juda katta film ekan, telefon ekranidan ko’rish no-qulay bo’lyapti, nima qilsak bo’ladi?” deb so’radilar. Indin kuni ishxonaga taklif qildim. Kichkina zalda besh-olti kishi birgalikda tomosha qildik. Ustoz toliqib, charchab qolmasmikinlar, degan xavotirda edim, yo’q, ekrandan ko’z uzmay, berilib, diqqat-e’tibor bilan ko’rdilar. Namoyish tugagach, ancha jo’yali fikr-mulohazalar bildirdilar. Xayrlashdik.

Erta-siga yana qo’ng’iroq qilib, “Shuhrat, hali ham filmning ta’sirida yuribman, – dedilar. – Kecha uni ko’rib bo’lganimdan so’ng, nimaga Amir Temur siymosi juda qisqa ko’rsatildi ekan, degan xayolga borgan edim. Endi o’ylab qarasam, shunisi to’g’ri bo’libdi. Hazrati Sohbiqirondek betakror shaxs obrazini yaratishga qodir aktyor topilmagan ekan-da. Negaki, bu roli iro etadigan san’atkor Amir Temurdek fikrlashi kerak, afsuski, bunday artistlar dunyo miqyosida hisoblaganda ham sanoqli. Film mualliflari shu holatni e’tiborga olib ish tutgan ekan”, dedilar.

Rahmatli Ibrohim aka ana shunday – har qanday masalaning mohiyatini teran anglaydigan zakiy inson edi”.

Ashurali Jo’rayev: “Baxtli odam ekanman, shunday ulug’ ijodkor, ustoz-murabbii bilan ko’p yillar birga ishlash nasib etdi. U kishining bilim va tafakkuri, mehnatkashligini so’z bilan ifoda qilishga oqizman. Ko’p guvohi bo’lganman, kuzatganman – Ibrohim aka ertalab ishga kelganida egnidagi o’horli ko’ylagining yenglari qordek oppoq bo’lardi. Lekin kun bo’yi qo’lyozmalar, gazeta grankalari ustida muk tushib, qaro terga botib ishlagani uchun kechki paytga borib oq ko’ylagining yenglari qop-qora bo’lib ke-tar edi.

Adabiyotning chinakam jonkuyari, fido-yisi edi. O’zbekistonning qaysi shahar, qaysi qishloq yoki ovuli bo’lmasin, “yilt” etgan biror iste’dodni ko’rib-eshitib qolsa, xuddi tilla yombi topib olgan odamdek quvonib ke-tar, ana shu yosh shoir yoki adibga, adabiyotshunosga, albatta, e’tibor qaratar edi. Keksalik, bemorlik chog’larida ham bu odat ustozni tark etmadi. Adabiyotimizda paydo bo’lgan katta-kichik barcha asarlarni o’qib, kuzatib borar edi. Hech esimdan chiqmaydi, Botir Zokirov haqidagi kitobimni xastalik paytlarida o’qib, menga atay qo’ng’iroq qilib, qimmatli fikrlarini bildirdi, ko’p yaxshi tavsiyalar berdi. U kishi kek-sa-yu yosh o’nlab ijodkorlardan, shogird va izdoshlaridan ham mehri va marhamatini hech qachon darig’ tutmas edi”.

Xurshid Do’stmuhammad: “Esla-sangiz, Ibrohim aka bir mansurasida “Ma’ruf zotning quroli yo’q, faqat savollari bor”, deb yozganlar. Bu so’zlar umr bo’yi izlanish ustozning hayoti mazmuniga aylanganidan darak beradi. Ibrohim G’afurovga in’om etilgan kashfiyotga tashnalik tuyg’usi, mana, to’qson yildirki u kishini biron yil, biron oy, biron kun tark etmadi.



BASHORAT VA VASIYAT



Bir kuni mendan: “Uelbekni o’qigan-misiz?” deb so’rab qoldilar. “Yo’q”, degan edim, ranjigandek bo’ldilar. “Butun Yevropada nomi tildan tushmayotgan adib ijodidan bexabar odam qanday qilib o’zini yozuvchi deya oladi?” dedilar. So’ng “Bekketning “Dante” degan hikoyasi bor, bilasizmi?” dedilar. Har qalay, bunisidan xabarim bor edi. O’qiganimni bilgach, yuzlari yorishib ketdi. “Ajoyib hikoya! – dedilar. – Qayta-qayta o’qishga arziydi...”

Milliy madaniyatimiz tarixida badiiy tarjima alohida oltin sahifalarni tashkil etadi. Ibrohim akaning bu sohadagi beqiyos, barakali ijodiga asoslanib, zarracha ikkilanmay aytish mumkin: o’zbek tarjima maktabi dunyodagi hech bir millatning tarjima maktabidan kam emas – uning tarixi, ilmi, amaliyoti, erishgan ulkan yutuqlari bilan har qancha faxrlansak, arziydi”.

Firdavs Abduxoliquov: “Bundan yetti-sakkiz yil oldin Ibrohim G’afurov bilan Sankt-Peterburg shahriga ijodiy safarga bordik. U yerdagi olamga mashhur Ermitaj muzeyida 1941-yili – fashistlarga qarshi dahshatli urush boshlangan, to’rt tomonda bombalar portlab turgan og’ir kunlarda Alisher Navoiy bobomizning 500 yillik yubileyi nishonlangan. Ana shu tarixiy voqeaga bag’ishlab, muzeyda rossiyalik va o’zbekistonlik olim-u adiblar ishtirokida xotira kechasi o’tkazildi. Bilasizlar, Ermitajda akademik Boris Piotrovskiy rahbarligida butun dunyoga dong taratgan katta olimlar, professor-u akademiklar ishlaydi. Bu anjumanda ham ularning aksariyati qatnashayotgan edi. So’z navbati bizga, O’zbekiston delegatsiyasi vakillariga kelganida, Ibrohim aka jahon ilm-fani, tarixi va falsafasi, adabiyoti va san’ati haqida, Sharq va G’arb o’rtasidagi madaniy aloqalar, ularning o’tmishi, buguni va istiqboli xususida shunday ma’ruza qildilarki, butun zal suv quygandek jim bo’lib tingladi. Domla Alisher Navoiy va Aleksandr Pushkin, Ahmad Yassaviy va Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy va Abdulla Qodiriy to’g’risida, Bartold, Bertels, Konrad degan qator allomalar haqida favqulodda o’tkir fikrlar bildirilar. U kishi so’zlarini tugatganda zalni gulduros qarsaklar tutib ketdi. Boris Piotrovskiy bilan birga Irina Popova degan mashhur san’atshunos olima

o’rnidan turib, ustozga alohida, qizg’in minnatdorlik bildirdilar. Men ana shunda ilmiy darajasi fan nomzodi bo’lgan bu kamtarin insonning manaman degan akademikdan qolishmaydigan intellektual salohiyat egasi ekaniga ishonch hosil qilgan edim”.

Sodiqjon Turdiyev: “Ibrohimjon aka O’zbekiston nuroniylarining eng mo’tabar, peshqadam namoyandasi, chinakam faxri edi. Barcha tadbirlarimizda faol ishtirok etar edi. Dunyoqarashi, Vatanga sadoqati, mehnatkashligi bilan u kishi haqiqiy qahramon edi. Ilm-u ijodda qanchalik ulug’ bo’lsa, hayotda shunchalik kamtar inson edi. Qarangki, Xudonga sadoqati, mehnatkashligi bandasi ekanki, nihoyatda oson, yengil o’lim nasib etibdi. Albatta, Alloh bilguvchidir, lekin Ibrohimjon aka tabiatdan muloyim, xoksor, boshqalarga og’irligi, tashvishini solmaydigan beozor odam bo’lgani uchundir balki, shanba kuni omonatni topshirib, yakshanba kuni so’nggi manzilga kuzatildilar”.

Iqbol Mirzo: “Ibrohim aka Erkin Vohidov kabi men bu dunyoga kelib topgan talabchan va mehribon ustoz edilar.

Ilk mashqlarimdan tortib shu kunlarda yaratayotgan asarlarimgacha hammasini, “Jadid”ning har bir sonini o’qib, doimo xolis, ochiq va dangal baho berar edilar. Hatto, “Bonu” romanimga alohida so’zboshi ham yozib bergan edilar. Bu asar haqida ko’p fikr-mulohazalar bildirilgan, ammo hech kim uni ustozdek chuqur tahlil qilib bera olmagan.

Erkin Vohidov haqidagi gazetamizda bosilgan maqola ustida ko’pdan buyon ishlar edilar. Nihoyat, uch-to’rt kun oldin qo’ng’iroq qilib, yozib bitirganliklarini ma’lum qildilar. Keyin esa “Iqboljon, kompyuterda ko’chirtirishga ulgurolmadim, aybga buyurmaysizlar”, deb uzrxohlik qildilar... Darhaqiqat, Erkin ustoz aytganlaridek, “Ibrohim G’afurov bu dunyoning odami emas edilar”.

Minhojiddin Mirzo: “Ramazon hayitining ilk kunida borib ustozni ziyorat qilgan edim. Adabiyotimiz haqida, yosh shoir-adiblar ijodi haqida, dunyoni tobora keng egallab borayotgan sun’iy intellektning imkoniyat va tahdidlari haqida goh kullib, goh kuyunib ajoyib fikrlarni aytgan edilar. Salkam to’qson yoshda ham u kishini tark etmagan ko’z ravshanligi, aql o’tkirligi, tafakkur tiniqligi har qanday odamning havasi va hayratini keltirar edi.

Vafot etganlariga hanuz ishonolmayman”.

Nurboy Jabbor: “Ibrohim G’afurov betakror adib, ayni vaqtda adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, tarjimaunoslik sohalarini, nafaqat Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Boborahim Mashrab kabi mumtoz shoirlarimizning, balki mashhur G’arb adiblarining ijod olamini ham chuqur tadqiq qilib, o’ziga xos ilmiy maktab yaratgan haqiqiy alloma edi. Ming afsuski, bu dunyoda maktab u yoqda tursin, hatto sinf ham yaratolmagan, lekin savlatidan ot hurkadigan soxta olimlar qanchadan qancha...”

G’ayrat Majid: “Dafn marosimidan keyin ezilib uyga qaytdim. Javonimdan ustozning “Asarlar” to’plamining “Joziba” deb nomlangan birinchi jildini qo’limga olib, beixtiyor varaqladim. Bu majmuani nashrga tayyorlagan zahmatkash olima singlimiz Shahnoza Nazarovaning “Tafakkur kemasi” deb nomlangan So’z-boshisida keltirilgan bir rivoyatni qayta o’qidim. O’qidim-u rahmatli Ibrohim aka-ga bo’lgan hayrat va hurmatim yanada ziyoda bo’ldi:

“Ulug’ donishmand Fariddin Attor naql qiladiki, Ibrohim ibn Adham bir kuni bir quduqqa yetishdi. Namoz vaqti edi. Tahorat qilmoq uchun qovg’ani quduqqa tashladi, toki suv chiqarsin. Qovg’a to’la oltin chiqdi. Ibrohim oltinni to’kib, yana qovg’ani tashladi. To’la javohir chiqdi. Uni ham to’kdi va dedikim: “Menga xazinangni ko’rsatmagil, menga suv kerak. Suv ber, tahorat qilayin”. Bu gal qovg’a to’la suv chiqdi...”

O’ylaymanki, bu rivoyatning mag’zini chaqqan har bir inson hayoti sinov-mashaqqatlar, zahmat-u mehnatga to’la, sharaflil, olis umr yo’lini mardona bosib o’tgan Ibrohim G’afurovning ham buyuk otdoshi Ibrohim Adham kabi mol-u davlatga, bu o’tkinchi dunyoning ko’ngilga qutqu soladigan yaltiroq matohlariga etak silkilb yashaganini, albatta, anglab yetadi”.

Qayg’udosh do’shtar davrasida bu so’zlarga some bo’lib o’ltirar ekanman, butun qalbim, vujudim bilan ularni tasdiqlar edim. Mening ham yarim asrdan ziyod hayot va ijod yo’limda Ibrohim G’afurovning hech qachon unutilmas, so’nmas ta’siri va hissasi borligiga shukrona aytardim. “Mirkarim chol” nomli ilk hikoyamdan tortib kuni kecha yakunlangan “Yaldo kechasi” romanigacha ustozning xayrixoh, talabchan nazaridan o’tgani bilan cheksiz iftixor qilaman. U kishi besh yuz betli bu asarni qo’lyozma holida ikki marta, so’ngra nishona nusxasini kasalxonada, “Qo’ying, urinib qolasiz”, deb qarshilik qilishimga qaramasdan, yana bir bor sinchkov nigoh bilan o’qib, nihoyatda qimmatli fikr va xulosalarini endi men uchun aziz yodgor bo’lib qolgan o’nlab sahifalarga bitib, taqdim etgan edilar. Xastalik azobini sabr-chidam bilan yengib, mas’ul mu-

harrir sifatida asar ustida men bilan necha yillar barobar zahmat chekkanlarini nafaqat bugun, balki umrim boricha minnatdorlik va qarzdorlik hissi bilan eslayman.

Ibrohim G’afurovning qanday buyuk so’z zargari bo’lgani haqida uzoq gapirish mumkin. Men ham bunga ko’p bora guvoh bo’lganman. Bir necha yil muqaddam, yoz fasli edi, Do’rmon ijod bog’ida suhbatlashib qolganimizda Dostoyevskiyning “Вечный муж” deb atalgan qissasini tarjima qilayotganini, asarga o’zbekcha nom berish xususida ko’pdan beri o’ylab yurgani va hozircha ma’qul bir variant topa olmagan haqida gapirganlari ham esimda. Keyinchalik qissa kitob holida nashr etildi. “Tarjimonidan” deb berilgan muxtasar Kirish so’zida Ibrohim aka er, xotin va jaman munosabatlari yoritilgan asarning nomini uning kinoyali, istehzoli mazmunidan kelib chiqqan holda, “Boqiy er”, “Aldangan er”, “Aylomdan er”, “Umrbogiy er”, “Xushboq er”, “Doimiy er” degan yigirmadan ortiq so’zlar bilan tarjima qilib ko’rganini, ammo ularning birontasi o’zini qoniqtirmaganini, ko’ngliga o’tirishmagani haqida yozadi. Nihoyat, bir kuni xayoliga “Ayrilmas er” degan ibora keladi-yu munosib muqobilini topganiga ishonch hosil qiladi.

Sakson besh yashar keksa bir mo’ysafidning o’z ishi, kasb-u hunariga mehri va sadoqati meni lol qoldirgan edi. Yetmish yildan ziyod davom etgan ijodiy faoliyati davomida ustoz bunday mushkul muammolarga necha ming marta duch kelganini, hurmatli Prezidentimiz aytganlaridek, bilgan odam – biladi, bilmagan odam – baxtli bo’ladi.

Ibrohim aka buyuk qanoat sohibi edi. Shukronalik, sabr-toqat, halol mehnat umrining bosh a’moli edi. U kishining tirikchilikdan, zamondan, osh-suv, pensiya yoki orden-unvon yetishmasligidan norozi bo’lib biron marta shikva-shikoyat qilganini hech kimsa eshitmagan, ko’rmagan. Chunki hayot mohiyatini tub-tubi bilan, bag’oyat teran anglagan mutafakkir zot o’laroq, u zimmasiga buyuk, cho’ng bir vazifa yuklanganini yaxshi tushunar va ana shu ulug’ missiyani hamisha yuksak mas’uliyat bilan ado etishga intilar edi.


Lekin shunday temir bardoshli odamning ham umrida bir marta noliganiga guvoh bo’ldim. “Ma’rifat va ta’lim” degan gazetada bosilgan bir suhbatida armon va anduh to’la quyidagi so’zlarini ko’rdim: “Yuragim og’rib turgan bo’lsa ham aytaman. “Ayyub nolasi”, “Buzrugning kuzi”ni bir odam o’qidim, demadi. Kim uchun yozdim, tarjima qildim ularni? Bugun o’qimayotganlar ertaga o’qirmikan?... Hech kimning aybi yo’q, faqat erkin global bozor iqtisodiyoti...”

Ochig’i, men bunday ishtiboh-gumonlar Ibrohim G’afurovga begona bo’lsa kerak, degan fikrda edim. U kishining tinimsiz, benihoya fayz-u barakali ijod qilishi, maqola va badialari, mansura va xotiralari, badiiy tarjimalari uzluksiz bosilib turishini kuzatib, bu odam zamon evrilishlariga mutlaqo parvo qilmasdan, Parvardigor o’ziga buyurgan yumushni og’ishmay ado etish bilan mashg’ul, deb o’ylardim. Qarangki, aksariyat adiblarning dilini o’rtab, ijodiy ishdan hafsalasini pir qiladigan iztirobli savollardan ustoz ham mustasno emas ekan...

“Jadid” gazetasida bosilgan o’sha mashhur maqolasining yakunida muallif Erkin Vohidovga tog’asi – o’z zamonasining yetuk ziyolisi Karim Saxiboyev “Farhod va Shirin” dostonidan misol keltirib aytgan bir nasihatni zikr etadi: “Men senga Farhodday bo’l, demayman. Ammo so’zing Farhodning teshasiday o’tkir bo’lsin, o’g’lim. Senga bashoratim shu”.

Bugun aziz va mo’tabar ustozimizning munavvar xotirasini yod etar ekanmiz, u kishining so’nggi maqolasi mohiyat e’tibori bilan adabiyotimiz ahliga, barcha ziyolilar, millatimiz, butun xalqimizga ma’naviy vasiyat bo’lib yangrashini idrok etmog’imiz tabiiydir.

Xayriddin SULTON





OLAM OLIMI

Klaudiya GOLDIN



ayollar
mehnat
bozori
tarixini
yangi
oqimga
burgan
nobelchi

UMR YO'LI

Klaudiya Deyl Goldin 1946-yil 14-mayda AQSHning Nyu-York shahrida tug'ilgan. 1967-yilda Kornell universitetida iqtisodiyot bo'yicha bakalavr darajasini olgan. Keyinchalik Chikago universitetida tahsil olib, 1969-yilda magistrlik va 1972-yilda doktorlik darajasini qo'lga kiritgan. Pedagoglik faoliyati davomida Viskonsin, Prinston va Pensilvaniya universitetlarida dars bergan.

1990-yilda Garvard universiteti iqtisodiyot fakultetida doimiy professor maqomini olgan birinchi ayol sifatida tarixga kirgan.

Klaudiya Goldinga 2023-yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti berildi.

TADQIQOTLARI

Olimaning asosiy tadqiqotlari ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki tarixi, haq to'lovidagi farqlari va iqtisodiy imkoniyatlariga bag'ishlangan. Eng muhim xulosalaridan biri shuki, ayollar va erkaklar o'rtasidagi ish haqining farqi tasodifiy holat emas, balki asrlar davomida shakllangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy omillar natijasidir. Uning ishlari ta'lim darajasi, oilaviy majburiyatlar, mehnat bozori sharoitlari va davlat siyosati ayollarning iqtisodiy faolligiga qanday ta'sir qilishini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

YANGI NAZARIYA

1994-yilda Goldin xonim iqtisodiy taraqqiyot jarayonida ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki "U" shaklli trayektoriya bo'ylab o'zgarishini ko'rsatib berdi. Uning nazariyasiga ko'ra: agrar jamiyatlarda ayollar mehnat faoliyatida keng ishtirok etadi; industriallashuv davrida ularning ishtiroki pasayadi; ta'lim va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi bilan ishtirok yana oshadi. Bu nazariya iqtisodiy taraqqiyot va gender munosabatlari o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"SOKIN INQILOB"

Goldin XX asrda ayollarning ta'lim, kasb va oila haqidagi qarashlarida yuz bergan tub o'zgarishlarni "Sokin inqilob" deb atadi. Uning fikricha, avvalgi avlod ayollari ishlashni vaqtinchalik faoliyat sifatida ko'rgan bo'lsa, keyingi avlodlar o'z hayotini uzoq muddatli kasbiy rivojlanish bilan bog'lay boshladi. Bu o'zgarishlar mehnat bozorida ayollarning mavqeyini kuchaytirishga xizmat qildi.

Klaudiya Goldin iqtisodchi Lourens F. Katts bilan hamkorlikda olib borgan tadqiqotlarida tug'ilishni nazorat qilishning ayollar hayotiga ta'sirini o'rgandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu omil ayollarga oliy ta'lim olish, mutaxassislik bo'yicha lavozimlarga va iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyatlarini kengaytirgan.

XULOSA

Klaudiya Goldin iqtisodiy tarix va mehnat iqtisodiyoti sohasida yangi yo'nalishlarni shakllantirgan yetuk olimlardan hisoblanadi. Uning ishlari iqtisodchilar, siyosatchilar va gender tenglik sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun muhim ilmiy manba bo'lib qolmoqda.

U ilm-fan orqali jamiyatdagi muhim muammolarga yechim topish mumkinligini amalda isbotlagan yirik iqtisodchi sifatida jahon tarixida munosib o'rin egallaydi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

TAXIR TARIX

O'LJAGA AYLANGAN
KITOBLAR

Yozma bitiklar vaqt devorlarini yengib, xalqning qaddini tutib turadigan darajada qudratli. Shu sababli, tarixda "yurt olgan" hukmdorlar mag'lub bo'lgan xalqlarning qo'lyozmalarini yo'qotishni birinchi vazifa deb bilgan. Qo'lyozmalar, kitoblar gulxanga qalangan, suvga oqizilgan, o'lja sifatida olib ketilgan. Ne-ne buyuk allomalarimiz qalamiga mansub aksar asarlar o'zga davlatlarning kutubxonalari va muzeylari javonlarini bezab turgani shundan. Uzoq o'tmishni qo'ya turaylik, atigi bir-bir yarim asr ilgari kitoblarga kelgan qora kunlarni esga olaylik.

Avvalo, mana bu tarixiy hujjatga yuzlanamiz:

"Xalq kutubxonasi direktori hurmatli janob Ivan Davidovich!

O'tgan yilgi Xiva ekspeditsiyasi vaqtida xon saroyi musodara qilinganida mening huzurimda bo'lgan Nadvorniy Sovetnik Kun mening topshirig'imga binoan Sharq qo'lyozmalarini to'plagan edi. Ushbu maktub bilan ilova qilingan ro'yxatga binoan mazkur qo'lyozmalar kolleksiyasini yuborib, Imperator Xalq kutubxonasidan bu kolleksiyani rus qo'shinlari 1873-yildagi Xivada qozongan muvaffaqiyatlarining ilm-fanga keltirgan tufhasi tariqasida qabul qilishingizni iltimos qilamiz.

Chin hurmat va astoydil sadoqat bilan kaminalari – Turkiston general-gubernatori, general-ad'yutant K.P.Kaufman. 1874-yil, yanvar".

Peterburgdagi Xalq kutubxonasining 1876-yilgi hisobotida shunday jumlar bor: "Kutubxonaning faxriy a'zosi, general-ad'yutant K.P.Kaufman O'rta Osiyo xonlarining hujjatlari va yozmalari to'plamini sovg'a qilib yubordi. Bu hujjatlar va yozmalar Iskandarko'l, Shahrizabz va Xiva ekspeditsiyalari vaqtida to'planganidir".

1878-yilning avgustida Shahrizabz va Kitob shaharlari og'ir janglardan so'ng ishg'ol qilinganida Jo'rabek dodxoh yillar davomida to'plagan qimmatbaho kitoblar olib ketilgani, ularning umumiy soni hozirgacha ma'lum emasligi, tarixchi olimlarimiz so'nggi yillarda Moskva, Peterburgdagi kutubxona, muzey va shaxsiy jamlanmalarda olib borgan izlanishlari o'laroq faqat yuzdan ortiq kitob topilganini eslatib, mavzumiz doirasida faqat Xivadan olib ketilgan (o'g'irlangan yoki tortib olingan, desak to'g'riroq) kitoblar haqida to'xtalamiz.

Sharqshunos sifatida 1868-yildan Turkistonda faoliyat olib borgan, barcha yurishlarda qatnashgan A.L.Kun Kaufmanga bildirgisida shunday yozadi: "Xiva ekspeditsiyasi vaqtida men quyidagi ilmiy materiallarni to'pladim:

xon saroyini musodara qilish vaqtida sharq qo'lyozmalaridan iborat 300 kitob to'plandi, shulardan 129 tasi sarlavhalik 140 tomdan iborat tarixiy qo'lyozmalar, 30 tomdan iborat sharq shoirlarining devonlari, 50 tomdan iborat 40 ta huquqiy va diniy asarlardir. Bundan tashqari, 18 ta "Qur'on" va 50 ta dars kitoblari ham to'plangan".

O'zini sharqshunos deb biladigan olimning "Sharq" jug'rofiy atamasini ikki o'rinda kichik harflarda keltirishini qarang!

Ozarbayjonning Shamog'iy shahrida 1840-yilda tug'ilgan Aleksandr Lyudvigovich Kunning sharqshunos olim bo'lishiga otasi sababchi. Uyezd maktabida oddiy o'qituvchi bo'lgan katta Kun 14 ta tilni bilgan. Kun o'n to'rt yoshida yetim qoladi va hukumat hisobidan gimnaziya va Peterburg universitetining sharqshunoslik fakultetlarida tahsil oladi. Universitetni tugatgach, sharqshunos V.Grigorevning maslahati va talabi bilan avval Orenburgda, 1868-yildan boshlab Turkistonda faoliyat olib boradi. Barcha Sharq tillarini mukammal bilgan A.Kun bosqinchi qo'shin qatida yurib, noyob qo'lyozmalar va kitoblarni to'plash bilan shug'ullangan.

E'tiborli holat: A.Kun rus elchisi Danilevskiy bilan Xiva xoni o'rtasida tuzilgan ahdonmaning asl nusxasini Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat kutubxonasiga 1882-yili sovg'a qiladi. Ayni shu yili Xivadan olib ketgan qo'lyozmalar va hujjatlarning bir qismini Xalq kutubxonasiga topshiradi. Xiva bosqinidan deyarli to'qqiz yil keyin sharqshunos olimning "saxovat" ko'rsatishi sababi, u aynan 1876-yili Turkistondagi vazifasidan bo'shab, ishsiz qolib, Peterburgga borgan va ko'p idoralar eshigida sarson bo'lgach, bir chekkadagi Vilno maorif okrugi noziri yordamchisi qilib yuborilgandi. 1886-yil 4-iyulda V.Stasovga yuborgan xatida A.Kun "Meni sharqshunos sifatida Orenburgda ishlatishga va'da bergan edilar, lekin vakansiya yo'q degan bahona bilan meni Vilnoga yubordilar", deb yozg'iradi.

Kun o'rniiga Turkistonga kelgan yana bir sharqshunos V.Stasov Xiva ishg'ol qilingan vaqtda musodara qilingan qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar bilan 1886-yildagina qiziqib qoladi va shu borada Kunga murojaat qiladi. Bu so'rovga A.Kun shunday javob yozadi: "1876-yilga qadar men Iskandarko'l, Shahrizabz, Xiva, Qo'qon harbiy safarlarida marhum K.P.Kaufman huzurida kollektor sifatida qatnashganman. Xalq kutubxonasidagi qo'lyozmalar va Fanlar akademiyasida saqlanayotgan lingvistikaga doir materiallar mening o'sha safarlarda qatnashganligimni isbotlovchi materiallardir... Mening qo'lmda Xiva xonlarining

to'liq tarixi, sharq qo'lyozmalari, qadim zamonlardan tortib to 1873-yilgacha bo'lgan davr voqealari bayon qilingan qo'lyozmalar bor, lekin bularning hammasi Peterburgda saqlanmoqda va shu sababdan ular haqida ma'lumot berolmayman". Yana "Sharq" atamasini kichik harfda yozgan.

1888-yil Kun vafot etadi va uning kvartirasida saqlanayotgan qo'lyozmalarining bir qismi Fanlar akademiyasining Osiyo bo'limiga o'tkaziladi.

A.Kun 1874-yilda chop qilingan "1873-yilda Xiva xonligiga safar" sarlavhali maqolasida "qichishi mumkin bo'lgan joyini oldindan qashib qo'ygani" ushbu satrilarda ko'rinadi: "...Hujjatlar to'plami har qancha qiziqarli bo'lsa ham, lekin bu hujjatlarning fan uchun bo'lgan ahamiyatini e'tiborga olganda: 1) shu hujjatlarning to'liq emasligiga – ko'p hujjatlar yo'q bo'lib ketganligiga va 2) bu hujjatlar faqat keyingi vaqtlarga doir qiziqarli materiallardan iborat bo'lganligiga afsuslanmaslik mumkin emas. Bu holning ikki sababi bo'lishi mumkin: ruslar yaqinlashib kelayotganligi to'g'risida xabar olinishi bilan saroyda umumiy sarosimalik boshlangan, ikkinchidan, musulmon xonliklarida yozma hujjatlar saqlash odati yo'q edi. Har bir xon o'lganidan keyin saroyda bo'lgan mulkning hammasi merosxo'rlar o'rtasida taqsimlanib olinar edi, davlat arxivlari yoki hujjatlar saqlanadigan joylar xonliklarda bo'lgan emas".

Saroyda saqlanayotgan qimmatbaho kitoblar va qo'lyozmalarni musodara qilgan kimsa shu o'rinda uyalmasdan yolg'on gapiryapti. Uning yolg'onini vafotidan keyin o'z uyida saqlab kelgan juda katta arxiv – xonlikning so'nggi ellik yiliga oid hujjatlar tasdiqlaydi. Bu kitoblar va hujjatlar xon xazinasi bilan bir xonada saqlangan – hukmdorlarda kitob va boshqa yozma hujjatlar qimmatbaho tillolar kabi qadrlil ekanini ko'rsatadi.

A.Kun yolg'onlarini isbotlaydigan yana bir manba: asli xonlar avlodidan bo'lgan shoir va tarixchi Bayoniyning "Xorazm tarixi" kitobining 459-betida keltirilgan vajlradir: "...Saroyini olgan general Golovachyov otryadi saroydan chiqib ketgach, bir to'da olomon saroyga bostirib kirdi va Golovachyovdan qolgan hamma narsalarni olib ketdi..."

Keyinchalik olimlar turli kolleksiya va kutubxonalardan ayrim kitoblarning bir nechta varaqlarini topishadi. Ma'lum bo'lishicha, bu varaqlarni general otryadining ofitserlari va askarlari olishgan va harbiy o'lja sifatida sotishgan. Asrlar davomida to'plangan ma'naviy xazina boshiga qanday qora kun tushganini sezgandirsiz? "Melanj Aziatik" jurnalining 1890-yilgi sonida Kun



Ro'zimboy HASAN

kolleksiyasidagi qo'lyozmalarning ro'yxati e'lon qilingan. Ammo bu ro'yxatda faqat o'n ta daftar sanab o'tilgan, xolos. Qolgan qo'lyozmalar, kitoblar qani?

Keyinchalik yana bir missioner-sharqshunos P.P.Ivanov Xivadan musodara qilingan qo'lyozmalar va boshqa tarixiy hujjatlar bilan qiziqadi, topganlari ustida tadqiqotlar olib boradi. Ammo u ham oldingi salafllari kabi o'lja sifatida olingan barcha kitoblar, arxiv hujjatlari soni haqida hech bir asarida to'liq ma'lumot-ro'yxat keltirmaydi.

O'tgan asrning elliginch yillarida Xiva xonligi arxivi hujjatlarini (imkoni qadar topganlarini) tadqiq qilib, yirik monografiya yozgan akademik M.Yo'ldoshev o'z kitobida afsus bilan qayd qilgan holat masalani ozroq ochiqlaydi, xolos: "P.P.Ivanov Xalq kutubxonasida arxivning faqat bir qisminigina topgan. U qiyinchiliklar tortib, hajmi juda katta (!) materiallarni tekshirgan bo'lsa ham, lekin butun arxivning mazmuni to'g'risida xulosa bera olmagan. Shu sababli bu arxivni Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondlaridagi A.L.Kun arxivlaridan foydalanib o'rganish mumkin. Kun juda muhim va ahamiyatli materiallarni o'zida saqlagan..."

Akademik "juda muhim va ahamiyatli materiallar" deganida arxivdagi hujjatlar bilan bir qatorda noyob kitoblarni e'tiborda tutgani aniq.

A.Kun (va boshqa missioner-sharqshunoslar) talab olib ketgan qo'lyozmalarning qanchasi yo'qoldi, qanchasi chetga sotildi... buniyam bilmaymiz. Gohida qaysidir Yevropa davlatlaridan birining kutubxonasi yoki muzeyida "tasodif uchrab qoladigan" qo'lyozmalar o'zlari "qanot chiqarib, uchib bormagan"dir, axir?

Eng sirli va achinarlisi, xonlikdan musodara qilingan kitoblar va boshqa hujjatlar haqida gap ketganida faqat Ko'hna Arkdagi talonchiliklarga tilga olinadi. Ichon va Dishon qal'alarda faoliyat yuritgan ellikka yaqin madrasalarda yoki xon avlodidan bo'lgan to'ralar va boshqa amaldorlar uylarida tashkil qilgan shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan kitoblar kimlar tomonidan talon-taroj qilingani haqida tarix hali hamon sukut saqlamoqda.

JAHON AYVONIDA

PUL EVAZIGA TEZKOR SUHBAT



AQSH Davlat departamenti xorijlik sayyohlar uchun yangi pilot dasturini joriy etmoqda. Unga ko'ra, biznes va sayyohlik vizasini olmoqchi bo'lganlar qo'shimcha haq evaziga suhbat jarayonini tezlashtirishi mumkin. Bu haqda hujjatlar va Davlat departamentidagi manbaga tayanib, "The Independent" xabar berdi.

Yangi premium xizmatning narxi 750 dollarni tashkil etadi. Bu standart viza to'lovi bo'lgan 185 dollarga qo'shimcha ravishda to'lanadi. Dastur tafsilotlari shu haftada Federal reyestrda e'lon qilinishi kutilmoqda. Unga ko'ra, 750 dollar to'lagan arizachilar AQSHning muayyan elchixonasi va konsulliklarida 10 kun ichida suhbat kunini belgilashi mumkin bo'ladi.

50 FOIZDAN ORTIQ
O'ZBEKISTONLIK VIZA OLOLMADI

Jahon chempionati o'yinlarini bevosita stadiondan tomosha qilishni istagan ko'plab ishtirokchi mamlakatlar, shu jumladan, o'zbekistonlik muxlislar ham AQSH va boshqa mezbon davlatlar vizasini olishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

BBC nashriyning tahlillariga ko'ra, mundial ishtirokchilarining chorak qismidan ko'prog'i sayohat taqiqlariga uchramoqda yoki ularning viza so'rovlari aksariyat hollarda rad etilmoqda.



AQSH Davlat departamenti ma'lumotlariga ko'ra, JCH – 2026 musobaqasiga yo'llanma olgan jami 11 ta davlat fuqarolari uchun vizani rad etish ko'rsatkichi 40 foizdan yuqorini tashkil qiladi. O'zbekiston, Ekvador, Misr, Jazoir, Iordaniya va qator Afrika mamlakatlari aynan viza eng ko'p rad etiladigan davlatlar qatoridan joy olgan.

QOCHQINLAR REKORD
DARAJADA

Butun dunyo bo'ylab ta'qiblar, qurolli mojarolar, zo'ravonlik va inson huquqlarining buzilishi oqibatida o'z

uyini tark etishga majbur bo'lganlar soni 118 million nafarga yetdi. Bu haqda BMTning Qochqinlar ishlari bo'yicha oliy komissari boshqarmasi tomonidan e'lon qilingan yangi hisobotda ma'lum qilindi.



Hisobotga ko'ra, 2026-yil boshida Yer yuzidagi har 70 nafar aholidan biri majburiy ko'chkinchi maqomida bo'lgan. Shu bilan birga, so'nggi o'n yillikda ilk bor majburiy ko'chkinchilar soni qisqargani qayd etildi. Xususan, ularning umumiy soni 5,4 million nafarga yoki 4 foizga kamaygan.

ZO'RAVONLIKKA OID ISHLAR
AYOLLAR ZIMMASIDA

Qozog'istonda jinsiy zo'ravonlikka oid ishlar ayol tergovchilarga topshirildi. Bu haqda Ichki ishlar vaziri o'rinbosari Sanjar Adilov ma'lum qildi, deb xabar bermoqda "Kazinform".



Adilovning so'zlariga ko'ra, ushbu qaror jabrlanuvchilarning qo'shimcha ruhiy zarba olishlarini kamaytirish va tergov organlariga bo'lgan ishonchni oshirishga qaratilgan.



MILLAT FIDOYLARI

“BORSA KELMAS” YO‘LLARIDA

Uch og‘a-ini botirlar. Ularning oldida uch yo‘l bor edi: borsa kelar, borsa xatar, borsa kelmas... Bu ertak ham emas, cho‘pchak ham. Bir oila bag‘rida kamol topgan uch aka-uka – Sultonma’sud, Shohrux va Sultonmahmud Xolbotirovlarning taqdir yo‘li, qismati haqidagi mudhish haqiqatdir.

Oradan qariyb bir asrga yaqin vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, aka-ukalar boshdan kechirgan fojia yuraklarni hanuz larzaga soladi. Ular ko‘zlagan manzil va yo‘l qanday edi?

Sultonma’sud Xolbotirov 1888-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Otasi Ro‘zadorbiy Xolbotir o‘g‘li suv inshootlari bo‘yicha nazoratchi, keyinchalik Andijon shahrida bosh oqsoqol bo‘lgan. Xolbotirbek asli buxorolik bo‘lib, amir Muzaffarxon davrida bek maqomida xizmat qilgan. Amir tomonidan vazifa berilib, Qo‘qon va Andijonga yuborilgach, oila shu yerda muqim qolgan.



Sultonma’sud Xolbotirov

Ro‘zadorbiy 1898-yilgi Andijon qo‘zg‘olonidan keyin qirg‘in va jazolar avj olgan pallada xalq tomonida turgan yovqur kishilardan edi. Fozilbek Otabek qozi o‘g‘li “Dukchi Eshon voqeasi” asarida uning mahalliy aholi boshiga tushgan kulfatni yengillatishga, begunoh odamlar qoni to‘kilmassligiga urininganini yozadi. Turgan gapki, chor ma’murlari bunday munosabatni kechirmaydi: u oqsoqollikdan chetlatiladi va ko‘p o‘tmay vafot etadi. Undan Sultonmuhammad, Sultonma’sud, Shohrux va Sultonmahmud ismli o‘g‘illar qoladi. Aka-ukalar rustuzem maktablarida tahsil ko‘rib, zamonasining ilg‘or bilimlarini egallashga intiladi.

Sultonma’sud 11 yoshida otadan ajrab, o‘qishni to‘liq davom ettira olmay, mehnat qilishga majbur bo‘ladi. 16 yoshidan Uchqo‘rg‘onda mirzalik, so‘ng Izboskan pristavosida tilmochi (1905–1910) qiladi. 1911-yildan “Vladimir Alekseyev” firmasida mirza vazifasini bajaradi. Keyinchalik Ko‘gart irrigatsiya tizimida, Norin, Haqqulobod suv xo‘jaliklarida ishlaydi. U o‘z tarjimaiy holida: “*Yanada rus tilini o‘rganish va amaliyotda savodxon, ma’lumotli bo‘lish maqsadida men uchun uch-to‘rt yil Izboskan jabha pristani devonxonasida xat tashuvchi, mirzachilik qilishimga to‘g‘ri keldi*”, deb yozadi.

1917-yilgi fevral inqilobidan so‘ng Turkistonda uch hokimiyat vujudga kelib, yurt kelajagi masalasi kun tartibiga chiqadi. Ana shu pallada Sultonma’sud Xolbotirov ham jamoat ishlarida

faol ko‘rinda boshlaydi. Shahar dumasiga saylanadi, Andijon shahar boshqarmasida sog‘liqni saqlash mudiri yordamchisi bo‘lib ishlaydi. Bolshheviklar tajovuz yo‘li bilan hokimiyatni qo‘lga kiritgach, boshqalar qatori Sultonma’sud ham sovet idoralarida xizmat qilishga majbur bo‘ladi. Tez orada Turkiston respublikasi Sovetlarining VI syezdiga delegat qilib saylanadi. Andijon Soveti ijroiya komiteti ma’muriy bo‘limini boshqaradi. Ayni paytda Farg‘ona vodiysida “dashnoqlar”ning qirg‘inlari, bosmachilik harakatlari, siyosiy beqarorlik avj olgan og‘ir bir muhit hukm surardi. U 1919-yil mayda Andijonda tashkil etilgan inqilobiy qo‘mitaga rais o‘rinbosari etib saylanadi.

1920-yilda Turkiston komissiyasi a‘zolari Kuybishev va Frunze Andijonga kelganida Sultonma’sud Xolbotirov ham bir guruh milliy rahbarlar qatori hibsga olinadi. 1920-yil 5-maydan 9-avgustga qadar Toshkentda qamoqda saqlanadi. Qamoqdan chiqqach, yana davlat ishlariga jalb qilinadi. Sirdaryo viloyati maorif bo‘limida, Turkiston respublikasi xalq maorifi komissarligi huzuridagi o‘zbek ilmiy hay‘atida, keyin Kampirravot suv ombori qoshidagi inqilobiy komitetda rahbarlik vazifalarida ishlaydi. Andijon dehqonlarini suv bilan ta‘minlash kabi og‘ir va mas‘ul ishlar uning zimmasiga yuklatiladi. Keyin mahalliy xo‘jalik bo‘limi mudiri (1922–1923), uyezd-shahar ijroqo‘mi raisi o‘rinbosari, paxta zavodi rahbari (1925–1926) vazifalarida xizmat qiladi.

Zamondoshlari uni vazmin, xalq dardi bilan yashaydigan rahbar sifatida e‘tirof etadi. Fuqarolar urushi, ocharchilik va beqarorlik yillarida boshqaruv idoralarida ishlab, vodiya hayotini izga tushirishga urinadi. Turkistonning eng tahlilikali yillarida mas‘uliyatdan qochmay, og‘ir vazifalarni zimmasiga olgani ham uning fe‘l-atvoridagi matonat, jasoratdan dalolat beradi. Biroq 1937-yil qatag‘onlari Sultonma’sud Xolbotirovni ham ayovsiz sindirdi. 11-oktyabr kuni u hibsga olinib, uyida tintuv o‘tkaziladi. Tergovchilar uning faoliyatini “Sho‘royi islom” va “Milliy ittihad” tashkilotlari bilan bog‘lashga urinadi. Keyin ayblov xulosasi va “uchlik”ning hukmi bilan ham tanishtirilmay, Buryatiyaning Ulan-Ude shahriga qamoqqa yuboriladi. “Uchlik”ning 1937-yil 17-noyabrdagi hukmi bilan esa shu joydagi turmada tanishtiriladi. Shunda u O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissariga ariza yo‘llaydi: “*Qanday tahrir qilingan holda mening javoblarim so‘roq bayonnomasiga kiritilganini bilmayman. Badiiy tahrir qilish tergovchilar va xususian Voyloshnikov tasarrufidagi ish edi, u o‘zi yozgan va meni imzolab olgan so‘roq bayonnomasini o‘qish uchun bermagan. Bu haqda men ikkinchi tergovchi Chaliyga murojaat qildim, ammo u hech qanday e‘tibor bermadi. Tergovchi Chaliy 5-noyabr kuni kechasi soat 12 da menga “Qamalganlar uchun anketa”ni imzo qo‘yish uchun berdi. Uni avvaldan o‘zi to‘lg‘azib qo‘ygan ekan, ko‘plab tuzatishlar va yozuvlar bilan buzilgan, noto‘g‘ri anketani imzolash uchun*

meni “majbur qilishdi”.

Arizaning keyingi satrlarida u o‘zining aynan nima uchun qamoqqa olingani, nega turmada o‘tirganini hanuz tushunolmasligini bildirib, butun hayotini himoya qilib chiqadi: “*Agar 1917-yili shahar Dumasiga saylanganim uchun bo‘lsa, u holda men rus tilini bilgan, mas‘uliyatli kishi sifatida saylanganman...*” va hokazo va hokazo.

Barcha murojaatlar besamar ketib, bu xat ham javobsiz qoladi. Sultonma’sud Xolbotirov ming



Shohrux Xolbotirov

bir azoblar iskanjasida Ichki ishlar xalq komissarligining Amur lagerida halok bo‘ladi.

1924-yilning 8-yanvar kuni Toshkentning o‘sha vaqtdagi Sverdlov nomidagi teatr binosi Turkiston respublikasi Sovetlarining XII syezdiga kelgan 400 ga yaqin vakillari bilan to‘la edi. Turkiston fronti qo‘mondoni S.Pugachyov syezd minbarida turib, Butunittifoq Markaziy Ijroiya Komiteti nomidan 34 yoshli Shohrux Xolbotirovning ko‘kragiga “Qizil Bayroq” ordenini taqqanida yangragan qarsaklar sadosi butun zalni gumburlatib yubordi.

Shohrux Xolbotirov mehnat faoliyatini 1911-yili Andijon uyezdi Qo‘qonqishloq sudida mirzalikdan boshlagan. Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng Baliqchi volostida ariq oqsoqoli bo‘lib ishlarkan, uni sovetga a‘zo qilib saylashadi. Keyinchalik u Jalolobod va Haqqulobod inqilobiy qo‘mitalarida rahbarlik vazifalarini bajaradi.

Shohrux Xolbotirov 1923-yil may-sentyabr oylarida Andijon uyezdi bo‘yicha och qolganlarga yordam ko‘rsatish komissiyasini boshqaradi. Tez orada respublika miqyosidagi rahbar kadrlardan biriga aylanadi. O‘zSSR Yer-suv ishlari xalq komissarligida suv xo‘jaligi boshlig‘i etib tayinlanadi. 1930-yili Respublika poytaxti Samarqanddan Toshkentga ko‘chirilgach, Zarafshon vodiysi suv xo‘jaligi boshlig‘i bo‘lib Samarqandda qoladi.

Hamkasblaridan biri uni shunday eslaydi: “*Nihoyatda oqko‘ngil va mehribon inson. Odamlarni o‘ziga jalb etadigan qandaydir jozibali kuch sohibi edi. Uni sevil, hurmat qilmaslikning iloji yo‘q edi. O‘sha og‘ir kunlarda u har doim o‘z xodimlarining moddiy ahvoli bilan qiziqardi, muhtojlarga yordam berish, qo‘llab-quvvatlash haqida ko‘rsatmalar berardi*”.

1936-yili Asakada bo‘lib o‘tgan ilg‘or paxtakorlar slyotida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Ijroiya Komiteti birinchi kotibi Akmal Ikromov uning nomini alohida tilga olib, respublika suv xo‘jaligi rivojiga qo‘shayotgan hissasini e‘tirof etadi.

1937-yil boshlariga kelib, u ham NKVDning asosiy nishonlaridan biriga aylanadi. Bu damda u Zarafshon vodiysi suv

xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i sifatida yirik irrigatsiya ishlariga rahbarlik qilayotgan edi. Yanvar oyida O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi davlat xavfsizligi boshqarmasi kichik leytenant Rezyapov 3-bo‘lim materiallarini ko‘rib chiqib, Shohrux Xolbotirov ustidan jinoiy ish qo‘zg‘atish haqida qaror tayyorlaydi. Unda “sovetlarga qarshi kayfiyatdagi unsurlarni to‘plagan”, “O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti rahbariyatiga qarshi terrorchilik kayfiyatidagi shaxsalar bilan aloqada bo‘lgan”, kabi ayblovlar mavjud edi. Shu bilan birga, Ravotko‘ja plotinasi qurilishi uchun ajratilgan 160 kub dumaloq yog‘och, 126 kub taxta, bir yarim tonna temir, 54 tonna sement va 100 ming so‘m mablag‘ni o‘zlashtirgani haqidagi bo‘htonlar ham ishga qo‘shib yuboriladi. Qo‘l ostidagi 330 xodimning 470 ming so‘m qarzi borligi asos qilib olinib, uni Toshkentda hibsga olish haqida hujjat tayyorlanadi.

1937-yil 11-yanvarda respublika Ichki ishlar xalq komissari Zagvozdin mazkur qarorni tasdiqlaydi. Shohrux Xolbotirov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 63-va 67-moddalari bilan ayblanib, hibsga olinadi. Uning pasporti va guvohnomasi musodara qilinadi. Shu kuni Samarqand shahri Nekrasov ko‘chasidagi 4-uyda tintuv o‘tkaziladi. Tintuv chog‘ida 16 yashar qizi Oyimchaxon ham qatnashadi. Uydan 36 ta fotosurat, 29 ta yozuv bloknoti, Zarafshon vodiysi suv xo‘jaligi sxemasiga oid ikki xarita, 1933–1935-yillar suv taqsimoti hujjatlari, 1936–1942-yillarga mo‘ljallangan tadbirlar rejası, album, turli yozishmalar hamda ov miltilg‘i uchun pistonlar olib qo‘yiladi. Tergov anketasida uning oilasi – rafiqasi Shahrixon, qizlari Oyimchaxon, Jo‘raxon, Umidaxon hamda Mamlakatxon haqida ma‘lumotlar ham birma-bir qayd etilgan.

Tergov davomida turli guvohlardan ko‘rsatmalar olinadi. Ulardan birida Shohrux Xolbotirovning: “*Biz ruslar rahbarligida ishlay olmaymiz... Endi hammamiz birlashishimiz, o‘zimizga tarafdorlarni jalb etishimiz kerak, shu yo‘l bilan rahbarlikni qo‘lga olib, ruslarni haydab chiqarishimiz kerak*”, degan so‘zlari qayd etilgan. Yana bir ko‘rsatmada esa u paxta siyosati haqida norozilik bildirib, “*Paxta ekishni kamaytirish, boshqa ekinlarni ko‘paytirish lozim*”, degani yozib olinadi.

1937-yil mart-iyul oylariga oid saqlanib qolgan so‘roq bayonnomalardan ma‘lum bo‘lishicha, Xolbotirov “ayblar”ni tan olmaydi. Biroq oylab davom etgan bosim va qiynoqlardan keyin 15-iyuldagi so‘roqda u tergovchilar talab qilgan ko‘rsatmalarni imzolashga majbur qilinadi. Shu asosda tergovchi ishini yakunlab, prokuror orqali sudga topshirish uchun ayblov xulosasini tayyorlaydi va sudga taqdim qiladi.

1937-yilning noyabrida Samarqandda respublika Oliy sudi maxsus kollegiyasining yopiq sudi bo‘lib o‘tadi. Shohrux Xolbotirovga avval otuv hukmi chiqariladi. So‘ng bu jazo 20 yillik qamoqqa almashtiriladi. U 1938-yilning dekabrda og‘ir xastalikdan vafot etadi.

Ro‘zadorbiyning to‘rtinchi o‘g‘li Sultonmahmudni Andijon shahri, Kengash mahalla 9-uydan 1937-yil 2-oktyabr kuni Ichki ishlar xalq komissarligi Andijon sektori 3-bo‘limi xodimlari hibsga olib, shahardagi Latazavoddagi turmaga tiqishadi. U haqdagi ma‘lumotlarni asosan mahbus anketasidan o‘qiymiz.



Sultonmahmud Xolbotirov

Hujjatda uning 1890-yili tug‘ilgani, hibsga olingan paytda Norin tumani Sho‘rariq qishloq matlubotida magazin mudiri bo‘lib ishlagani yozib qo‘yilgan. Shuningdek, Sultonmahmud Xolbotirovning 1918-1919-yillarda qizil gvardiya safida xizmat qilgani ham alohida qayd etilgan. U hibsga olingan paytda rafiqasi Arofatxon 25 yoshda, o‘g‘li (birinchi turmushidan) Nasibxon o‘n yettiga kirgan, qizlari hali yosh edi.

Sultonmahmud Xolbotirov hayot yo‘lining bugungacha yetib kelgan manzarasi sarg‘aygan tergov jildlari, mahbus anketalari va so‘roq bayonnomalari aks etadi. Uning nomi tobora “Milliy ittihad” tashkiloti bilan bog‘lab ko‘rsatila boshlaydi. 1937-yil 2-noyabrda Hasanxon Niyozovdan olingan ko‘rsatmada u va Sultonma’sudning mazkur tashkilotga aloqadorligi haqida aytilsa-da, biror aniq ma‘lumot keltirilmaydi. Biroq bunday noaniq va isbotsiz ko‘rsatmalarning o‘zi katta terror malaylari uchun yetarli edi. Arxiv hujjatlarida NKVD xodimi Chaliy bu jarayonning asosiy tashkilotchilaridan biri sifatida tilga olinadi.

Oqibatda qahramonimizning “aksilingilobiy faoliyati”ni “asoslash” uchun 1934-yili berilgan ko‘rsatmalar ishga tirkaladi. Unda Sultonmahmud Xolbotirovning: “Birodarlar, biz kimmiz o‘zi? Biz turonlar avlodimiz, shuning uchun bu panturkchilik tarafdori bo‘lishimiz kerak... Garchand bizlar sovet xodimlari bo‘lsak ham, lekin bu holat doimiy emas, oxir-oqibatda bir kun kelib bu davr o‘tib ketadi”, degan so‘zlari uni “millatchi” va “panturkizm tarafdori”, “aksilingilobchi” sifatida baholashga kifoya qilardi. Kenja farzandning ishi O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi qoshidagi “uchlik” muhokamasiga yuboriladi. 1937-yil 13-noyabrda u ham 10 yil qamoq jazosiga hukm qilinadi.

Yillar o‘tib, Sultonma’sud, Shohrux va Sultonmahmud Xolbotirovlar ishi qayta ko‘rib chiqiladi. 1957–1958-yillarda qo‘yilgan ayblovlar asossiz ekani tan olinib, ular oqlanadi. Qizig‘i shundaki, uch og‘a-ini taqdirini hal qilgan Chaliy, Voyloshnikov, Berg kabi NKVD xodimlari ham bu vaqtda o‘zlari xizmat qilgan qatag‘on mashinasining o‘tkir tig‘lari domida qiymalanib ulgurandi.

Uch og‘a-ini botirlar. Ularning oldida uch yo‘l bor edi: borsa kelar, borsa xatar, borsa kelmas... Bu ertak ham emas, cho‘pchak ham, bir oila bag‘rida kamol topgan uch aka-uka – Sultonma’sud, Shohrux va Sultonmahmud Xolbotirovlarning taqdir yo‘li, qismati haqidagi mudhish haqiqatdir.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Hidoyat Inoyatov – 1913-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Yer-suv islohoti davrida uning ota-onasi quloq qilingan. Sovet hokimiyatiga qarshi oshkora muxolifatda bo‘lgan. 1927-yildan komsomol a‘zosi bo‘lgan. 1936-yil fevralida “Milliy istiqlol” aksilingilobiy tashkilotiga yoshlar uyushmasi tomonidan jalb etilgan. 1936-yili Toshkent shahar Kuybishev rayoni yoshlari komiteti kotibi o‘rinbosari sifatida boshlang‘ich komsomol tashkiloti ishini izdan chiqargan. Jadidchi Usmonxon Eshonxo‘jayev, trotskiychi Novikov, Valiyev va boshqalar tomonidan aksilingilobiy tashkilotga jalb qilingan. 1937-yil iyun oyida Moskvada jismoniy tarbiya paradida milliy yoshlar tashkiloti rahbari Ortiqovdan topshiriq olib, Stalin ustidan terrorchilikni amalga oshirishni maqsad qilgan. SSSR Oliy sudi sayyor harbiy kollegiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi yig‘ilishida otuvga hukm qilingan. Hukm o‘sha kunioyq ijro etilgan. 1957-yil 26-sentyabrda reabilitatsiya qilingan.

Ismoil Qori Otaboyev – 1893-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. 1930-yil 5-noyabrda OGPU tomonidan qamoqqa olingan. “Milliy istiqlol” tashkilotining Namangan filiali a‘zosi bo‘lgan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-, 11-bandlari bilan ayblanib, 5 yilga konslagerga yuborilgan. 1989-yil 30-martda reabilitatsiya qilingan.

Abdulla hoji G‘afurov – 1884-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. 1929-yil 6-noyabrda “Milliy istiqlol” tashkilotiga a‘zo bo‘lgan. Bosmachilik harakatini qo‘llab-quvvatlaganlikda, bosmachilarga pul bilan yordam berishda, yig‘ilgan mablag‘larni bosmachilarga o‘zining tanishlari orqali yetkazish bilan shug‘ullanganlikda aybdor deb topilgan. OGPUning 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 2-4-bandlari bilan ayblanib, 10 yil konslagerga hukm qilingan. 1989-yil 30-martda reabilitatsiya qilingan.

Said Vali Said Ahmedov – 1885-yil Toshkent shahrida tug‘ilgan. Dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Inqilobgacha Toshkent shahrida tegimon idorasida kotiblik qilgan. 1930-yil 1-oktyabrda hibsga olingan. Oradan 10 oy o‘tib, 1931-yil 2-iyulda tergov qilingan. Said Vali Said Ahmedov Munavvar qori Abdurashidxonov, Sadrididdin Xon bilan birga “Milliy ittihad” tashkilotining markaziy komiteti a‘zosi bo‘lgan. U 1923-yil “10”lar va “Milliy ittihad” a‘zosi sifatida tashkilot ishini faollashtirish maqsadida mablag‘ topgan. Xorijiy davlatlar vakillari bilan aloqada bo‘lgan. “10”lar uchrashuvi ayni uning uyida bo‘lib o‘tgan.

“Milliy istiqlol” tashkilotining a‘zosi bo‘lgani, o‘z oldiga sovet hokimiyatini ag‘darishga intilgani, Turkistonda burjua davlatini barpo etish uchun kurash olib borgan uchun ayblangan. OGPUning 1931-yil 3-noyabrdagi maxsus kengashida Said Vali Said Ahmedov uch yil muddatga G‘arbiy Sibirga surgun qilingan. Jazo muddati 1930-yil 3-noyabrdan hisoblangan. Qahramonimiz 1989-yil 20-noyabrda reabilitatsiya qilingan.


Abduqahhor qori Sattorov – 1898-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Do‘konda sotuvchi bo‘lib ishlagan. 1930-yil 28-dekabrda “Milliy istiqlol” aksilingilobiy tashkilotining a‘zosi sifatida hibsga olingan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 17-, 58-moddalari 4-bandi bilan ayblangan. 1931-yil 25-apreldagi sud kollegiyasi qaroriga ko‘ra, 10 yil muddatga qamoq jazosi bilan konslagerga hukm qilingan.

Shamsi Najmiyev – Andijon shahrida tug‘ilgan. Andijon uyezd-shahar partiya komitetining raisi lavozimida ishlagan. Keyinroq Andijon shahridagi maktablardan birida o‘qituvchilik qilgan. “Milliy ittihad” tashkilotining Andijondagi bo‘limi a‘zolaridan biri bo‘lgan. Keyingi taqdiri noma‘lum.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonida).



“Inson idroki Yer shariga o‘xshaydi: uning yarmi charog‘on, yarmi esa zulmat qo‘ynida.

Maksimilian ROBESPER

”



AKS SADO

“– Hurmatli Prezident! Sizdagi shiddat, shijoat, g'ayrat biz yoshlarni ham hayratga soladi. Bunday jo'shqinlikka erishish uchun nima qilish kerak? Buning qanday siri bor?”

– Buning hech qanday siri yo'q. Vatanni yurakdan sevish kerak, xolos”.

Ushbu javobda chuqur ma'noga ega hayotiy haqiqat mujassam.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda deyarli har kuni shaxsiy yutuqlarimiz haqida yozamiz: “Bog'im gulladi, men parvarishladim”, “O'g'lim mening duoyim bilan o'qishga kirib ketdi” va hokazo. Albatta, bu ham mehr va e'tibor ifodasi. Ammo nega biz jamiyatimizda, mahallamizda, yurtimizda bo'layotgan ulkan o'zgarishlarga kamroq to'xtalamiz? Go'yo bu ishlar o'z-o'zidan bo'layotgandek.

VATANNI SEVMOQ MAS'ULIYATI

“Jadid” gazetasida e'lon qilingan “MILLAT SHAHKATI” maqolasini o'qib...

Bugungi ochiqlik va oshkoralikka erishish uchun qancha og'ir sinovlardan o'tildi. “Inson qadri uchun” tamoyilining hayotimizda ustuvor bo'lishi bevosita Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi va tashabbusi samarasidir. Vaholanki, muhtaram Prezidentimizning hududlardagi mahallalarga, xonadonlarga tashrif buyurib, aholi muammolarini o'rganib, bartaraf etayotgani barchamiz uchun ibratdir.

Yaqin o'tmishni eslaylik. Hatto, qo'shni davlatlar bilan ham chegaralar yopiq, bordi-keldi cheklangan edi. Tojikiston, Qozog'iston yoki Qirg'izistonda yashayotgan qarindoshlarini ko'ra olmagan, hatto yaqinlarini so'nggi manzilga kuzata olmagan insonlar qancha! Buni boshidan o'tkazganlar his qiladi. Bugun vaziyat mutlaqo boshqacha. Qo'shnilar bilan munosabatlar tiklandi. Quda-anda, bordi-keldi an'analari ravnaq topdi. Bu o'zgarishlar yurtimizning har bir hududida, jumladan, Sirdaryo viloyati hayotida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Ayni shu bag'rikenglik siyosati tufayli “Yangi Sirdaryo” gazetasi tahririyati o'z tarixida birinchi marta xalqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Xususan, Tojikiston Respublikasining Sug'd viloyatida chop etiladigan “Sug'd haqiqati” – “Haqiqati Sug'd” gazetalarini hamda Rossiya Federatsiyasining Saxa Respublikasi – Yoqutistonda nashr etiladigan “Кыым” (“Uchqun”) gazetasi bilan o'zaro hamkorlik memorandumlari tuzishga erishdi. Hamkorlik doirasida muttazam madaniy tadbirlar tashkil etib kelinmoqda. Ayni paytda Tojikistonning Istaravshan shahri “O'zbeklar jamiyati” tashkiloti va “Паёми Истаравшан” gazetasi hamda Ozarbayjonning “Yazarlaz.az” jurnali tahririyatlari

bilan ham hamkorlik memorandumini tuzish arafasidamiz. Bu esa nafaqat axborot almashinuvi, balki madaniy va ma'naviy yaqinlashuvga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda Sirdaryo viloyatida yuzlab yangi qurilishlar amalga oshirildi. Yangi uy-joylar, maktablar, bog'chalar, tibbiyot muassasalari, yo'l va infratuzilma obyektlari barpo etildi. Aholi uchun qulay sharoitlar yaratildi. Qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalar joriy etildi, sanoat korxonalari tashkil etildi, ish o'rinlari ko'paydi. Yoshlar uchun ta'lim, sport va kasb-hunar o'rganish imkoniyatlari kengaydi.

Bu imkoniyatlar – Vatanga muhabbat bilan qilingan sa'y-harakatlarning natijasi. Besh yil muqaddam Sirdaryoga kelgan inson hozir kelsa, katta o'zgarishlarni ko'rib, hayratda qoladi. Olimpiada o'yinlarida hech qachon bo'lmagan yuqori natijaga erishish, futbol bo'yicha Olimpiada va jahon chempionatida qatnashish ham olib borilayotgan tizimli ishlar samarasidir. Bunda sirdaryolik sportchilarning bevosita ishtiroki dillarga faxr beradi.

Bu o'zgarishlar avval barchamizga erakdek eshitilgan. Shunday ekan, har birimiz o'zimizga savol beraylik: “Men yurtim uchun nima qildim? Nima qila olaman?” Ana shunda biz ham Vatanimiz taraqqiyotining faol ishtirokchisiga aylanamiz.

Vatanni sevish – bu shunchaki balandparvoz so'z emas. Bu – mehnat, mas'uliyat va daxldorlikdir. Bu borada muhtaram Prezidentimizdan o'rnak olish har birimiz uchun ham sharaf, ham burch deb hisoblayman.

Bahrom BOYMURODOV



TILBILIM



TAN OLISH va TAN BERISH

Bir narsaga qoyil qolsak, *tan berdim* deyimiz. Birovning kuchini e'tirof etish ham *tan berish* yoki *tan olish* so'zlari bilan ifodalanadi. Men shu paytgacha *tan berishni* “*tanini berish*” ma'nosida bo'lsa kerak deb tushunganman.

Chunki qadimda janglarda yengilib, taslim bo'lganlar g'oliblarga xizmat qilishgan, bir so'z bilan aytganda, *tanini* topshirib asir tushganlar. Qadimgilarning o'g'lini ustaga shogirdlikka topshirayotganda “*Eti sizniki, suyangi bizniki*” degan gapi ham shu ma'noga yaqinroq. Men shoir Shodmonqul Salomdan *tan*

*berish*ning ildizini qanday tushunishi haqida so'raganimda u ham “*tanini berish*” ma'nosida bo'lsa kerak dedi. Biroq men G'ani Abdurahmonov va Alibek Rustamovning “Qadimgi turkiy til” kitobida qadimgi tilimizda *tan* so'zi “*hayrat*” ma'nosini anglatgan degan ma'lumotga duch keldim va *tan berish* birikmasining tub ildizini ilg'aganday bo'ldim. *Tan berish* – qoyil qilish, *tan olish* – qoyil bo'lish mazmunida keladi va bunda lol qilish ma'nosi ham bor. “*Tan*” so'zining “*hayrat*” ma'nosi hozirgi tilimizda ham saqlanib qolgan. Masalan, tilimizda faol qo'llanadigan *tansiq* so'zi *ajoyib*, *kamyob* ma'nosini bildiradi. Ajoyib

va kamyob narsa esa hayratlanarli bo'ladi. *Tansiq* so'zining ildizi hayrat ma'nosidagi *tan* so'zidir, unga *-suq* qo'shimchasi qo'shilgan. *Tan berish* birikmasi ham “*hayratlanish*, *qoyil qilish*” ma'nosidagi *tan* so'zidan paydo bo'lgan.

Tilimizda *tong (tañ) qoldi* iborasi ham “*hayron qoldi*”, “*lol qoldi*” ma'nosida keladi. *Tong (tañ)* so'zi “*mo'jiza*, *hayrat*, *ajoyib*” ma'nolarini anglatishi haqida aytib o'tgan edik.

Yusuf Xos Hojib “*o'zim hayratda qoldim*” degan gapni *o'züm tañladim* shaklida ifodalagan.

Eshqobil SHUKUR



SHUKRONA

XALQ XIZMATIGA KAMARBASTAMIZ

Ulug' va aziz O'zbekistonimizda bugun ulkan yangilanish, olam ahlini hayratga soladigan darajadagi rivojlanish yuz bermoqda. Biy-day dalada dostonlarda ta'riflangandek yangi shaharlar barpo bo'lmoqda, odam aqlini shoshiradigan imoratlar qurilmoqda. Olam haqidagi hangomalardan dunyoning yetti mo'jizasi degan gaplarni eshitganmiz. Misr ehromlari, Semiramidaning osma bog'lari va boshqa me'moriy obidalar shular jumlasidan.

Akademik shoir G'afur G'ulom o'zbek xalqining bunyodkorlik salohiyatini: “Qadim o'zbek xalqisan, Asl Odam avlodi. Misr ehromlaridan tarixing qariroqdir...” deya ta'riflaganidan faxrlanganmiz. Aynan bugun ko'z o'ngimizda mana shu tarix tobora tiniq aks etmoqda. Toshkentda bunyod bo'lgan Islom sivilizatsiyasi markazi yoki Samarqanddagi Imom Buxoriy

muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Madaniyat, san'at va adabiyot sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida”gi Farmoniga binoan “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoniga munosib ko'rildim. To'g'risi, naqadar xursand bo'lganimni, boshim osmonlarga yetganini so'z bilan ta'riflay olmayman.

Muhtaram Prezidentimizga mingdan ming rahmat! Bu mukofot menga ulkan mas'uliyat yukladi. Vatani uchun, xalq uchun, kitobxonlar uchun yangi kuch-g'ayrat bilan mehnat qilishga undamoqda. Davlat mukofoti berilganidan quvongan do'stlarim: “Nazarga tushding, Beknazar! Qandigini ur, o'ng bo'lsin!” deya muborakbod etganida ko'zyoshimni tutib tura olmadim.

Bu o'n quvunch bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat, san'at va adabiyot sohalari” yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar to'g'risida”gi



Beknazar YERNAZAROV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

chilar ijod mahsuli tarixda birinchi marta yaxlit holda o'zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi. Bu orqali turkiy xalqlar o'quvchilari orasida keng tarqaldi. Mazkur ko'pjildlikning “Qoraqalpoq zamonaviy nasri antologiyasi” deb nomlangan 38-jildiga mening ham “Edege” nomli ertak-qissam kiritilgani, turkiy xalqlar adabiyotidan mening asarim o'rin olganidan naqadar quvonganimni aytilish, nokamtarlik bo'lsa ham, bugun naqadar yoqimli.

Yaqin o'tmishning mudhish xatosi sabab ro'y bergan Orol fojiasi bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo uchun dolzarb mavzuga aylandi. Davlatimiz rahbarining Bir-lashgan Millatlar Tashkiloti min-barida tarixda ilk bora o'zbekcha nutq so'zlab, dunyo hamjamiyati nazarini Orolga qaratganini xalqimiz qattiq hayajon va faxr bilan kuzatdi. Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida Mo'yynoq mutlaqo yangi qiyofa kasb etdi. Orolqumni Orolormonga – yashil makonga aylantirish ishlari jadallashib ketdi. “Madaniyat Mo'ynoqdan boshlanadi!” degan hayotbaxsh shior qoraqalpoq eli turmushiga tatbiq etildi.

Oldimizda buyuk sana – O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi turibdi. Ushbu ayyomni keng nishonlash uchun “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g'oyani bayroq qilib yashamoqdamiz, mehnat qilmoqdamiz va olg'a intilmoqdamiz. Ushbu ulug'vor g'oya bilan sug'orilgan badiiy asarlar bitish uchun bel bog'lab ijod qilish naqadar qutlug' saodat!

“El-yurtini o'ylagan El g'amxo'ri kerak menga”.

Bu satrlar kelasi yili tavalludining 200 yilligi nishonlanadigan Berdaq bobomizga tegishli. Yonib, bo'zlab kuylagan shoirning armonlari bugun Prezidentimiz timsolida ushalmiqda. Biz ham Yangi O'zbekiston, Yangi Qoraqalpog'iston va Uchinchi Uyg'onish davri uchun shoir yozganidek xizmatda kamarbastamiz!



majmuasi qaysi tarix ko'zgusidan, dunyoning qaysi mo'jizasidan kam? Yetti iqlim ahlini o'ziga chorlayotgan qutli dargohlarimizdan hayratlanmay bo'ladimi?!

Fayz sochayotgan islohotlar samalarini aytib ado etib bo'lmaz. Yangilanish va uyg'onish kayfiyati Qoraqalpog'istonda ham keng quloq yoygan. 2017-yildan buyon Qoraqalpog'iston bo'yicha 80 dan ziyod farmon va qarorlar imzolandi. Ularning ijrosi buyuk o'zgarishlarni nafaqat tasavvur qilish, balki ko'z bilan ko'rish va ishonch hosil qilish imkonini berdi.

Barcha sohalar qatori adabiyotga, ijod ahliga berilayotgan e'tibor ham avval ko'rilmagan miqyosga ko'tarildi. Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi mas'ul kotibi sifatida bu imkoniyatlarning qiymati va bo'lg'usi hosilini yanada chuqur his qilaman.

Muborak Qurbon hayiti kunlarida

Farmoni qabul qilangani yuz quvunch bo'ldi. Ahli ijodning katta to'yiga tarixda naziri ko'rilmagan to'yona bo'ldi!

Xudo bergan umrni yashab kelyapmiz, o'tgan asrning ikkinchi yarmi va yangi asr boshidagi sinovli yillarni boshdan kechirdik. Lekin shu vaqtgacha madaniyat, san'at va adabiyot sohalari bag'ishlab bunday farmon qabul qilinganini ko'rmadik. Zahmat-u mehnat bilan qalam qitirlatib, kechalarni bedor o'tkazib, badiiy asar yozayotgan ijod ahlining ham kosasi oqaradigan bo'ldi.

Shu o'rinda Prezidentimiz tashabbusi bilan nashr etilgan “Turkiy adabiyot durdonalari” yuz jildlik majmuaning besh jildi qoraqalpoq adabiyotiga bag'ishlangani bizga katta faxr-u iftixor bag'ishlaganini aytmasam bo'lmaydi. Ezgu loyiha sharofati bilan qoraqalpoq adabiyotining mumtoz adiblari, jaddilari, XX asrda yashagan ijodkorlari, zamondosh shoir-yozuv-



Yigit bo'lsang, arslondayin qad kerib,
Xizmat qilgin fido bo'lib xalq uchun.

BERDAQ



Bosh muharrir:

Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Adadi – 18 511

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 049

Lotin yozuvida – 11 462

Media kuzatuvchilar – 84 447

Buyurtma: G – 640

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6 6

Shahfaloovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzili:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 21:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI



“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAAT FONDI